O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
(OTM rektori)
2023 yil “___” iyun

Ro‘yxatga olindi: №
2023 yil “8” avgust

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
fani

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2023

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi UYTB104	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 1/2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	60	60	120

I. Fanning mazmuni.

Fanni o‘qitishning maqsadi – O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan hududlardan biri, o‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmish va bebaho ma’naviy merosga egaligi, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatib berish va jamiyat hayotida, ijtimoiy turmush tarzida talabaning o‘rni, o‘zligini anglatish, shaxs, fuqaro maqomini tushunib yetishidan iborat.

Fanni o‘qitishning vazifalari – boy tarixiy o‘tmish, xususan, o‘zbek davlatchiligiga tarixiy ekskurs uyushtirish, qarama-qarshiliklarga boy ziddiyatli XX asr tarixi mazmun-mohiyatini ochib berish, mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistonda yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat hamda mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy hamda boshqa sohalarda amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini talabalarga to‘liq tushuntirib berish, ularni Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda milliy g‘urur va iftihorni shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Kirish.“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” – O‘zbekiston tarixining uzviy va ajralmas qismidir. “Eng yangi tarix” tushunchasi va uning izohi.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanni o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari. Yuksak intellektual salohiyatli, ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni va saboqlari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari. XXI globallashuv asrida ta’lim sohasida mazkur fanni o‘qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg‘or innovatsiyalar.

2-mavzu. O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.

Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi. Davlatchilik tushunchasi. Markaziy Osiyo hududidagi ilk davlat uyushmalari. O‘zbek davlatchiligi va uning tarixiy bosqichlari. Qadimgi Xorazm, qadimgi Baqtriya. Eramizning IX asriga qadar davlatchilik rivoji. IX-XII asrlarda hukmronlik qilgan davlatlar. Amir Temur – buyuk davlat arbobi va sarkarda. O‘rta Osiyoning xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabab va oqibatlari. XVI-XIX asrlar birinchi yarmida O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy ahvol. Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasi mustamlaka tuzumi. Milliy ozodlik harakatlari. Mustamlaka boshqaruv tartiboti va uning mohiyati. Sud-huquq sohasidagi o‘zgarishlar. Sovet hukmronligi davrida O‘zbekistonning markazga ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qaramligi va uning oqibatlari. Sovetlarning qatag‘on-zo‘ravonlik siyosati va uning mohiyati.

Mamlakatimiz erki va ozodligi uchun kurashganlar: Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi. Jadid ma’rifatparvarlari.

3-mavzu. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O‘zbekistonda amalga oshirgan qatag‘on-zo‘ravonlik siyosati. “Paxta ishi”, “o‘zbek ishi”. Aholi turmush tarzining og‘irlashuvi. Orol fojiasi. Farg‘ona voqealari. 1989 yil o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘sib borishi. I.Karimov – O‘zbekistonning birinchi prezidenti. Mustaqillik deklaratsiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1989-1991 yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar, ularning mohiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

4-mavzu. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topishining tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O‘zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o‘zgarishlar. Mustaqillikning e’lon qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo‘lidagi sa’y-harakatlar. Mustaqil O‘zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lining tanlashi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik me’yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. Mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

5-mavzu. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O‘zbekistonda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O‘zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o‘zgarishlar. O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O‘z-o‘zini boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o‘rni. O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta’minlash va himoya qilish. Oila instituti va uning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. O‘z-o‘zini boshqaruv organi – mahalla boshqaruv tizimining takomillashuvi. O‘zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasini umumxalq tomonidan qabul qilinishi (2023 y. 30 aperl).

6-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo‘nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o‘tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirilish mexanizmi. Pul islohotining o‘tkazilishi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo‘nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Makroiqtisodiy barqarorlik tomon yo‘l olinishi.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta’minlash, yo‘l-transport muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya masalasidagi ishtiroki. Gender tengligi. Xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat.

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati. Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta’lim va tarbiyaning o‘rni va roli.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning qabul qilinishi. Ta’limning milliy modelini shakllanishi, rivojlanishi va sohadagi muammolar. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonuni. Ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi: yutuqlar va kamchiliklar. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

7-mavzu. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.

Madaniy uyg‘onish (renessans). Mamlakat hududida sodir bo‘lgan renessanslar (IX-XII, XIV-XV asr) mohiyati. Xorazm Ma‘mun akademiyasi. Yangi O‘zbekiston uchinchi renessans tomon tutilgan yo‘l. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analarning qayta tiklanishi. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo‘lgan e’tibor. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san’at sohasining rivojlanishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma’naviy madaniyatni ta’minlashdagi o‘rni. O‘zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosati. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi. Amaliy san’at, rassomchilik, teatr va kino san’ati. Turizm sohasining rivojlanishi.

8-mavzu. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar. Ma’naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati. O‘zbek va qoraqalpoqlar xalqi do‘st va birodar xalqlar. Qoraqalpog‘istonda amalga oshiralayotgan keng qamrovli islohotlar va uning mohiyati.

9-mavzu. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati

O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi. O‘zbekiston Respublikasining BMTga a’zo bo‘lishi va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari. O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat

konsepsiyasi.

O‘zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘rni. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasining faolligi. O‘zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O‘zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borgan siyosati. 2021 yil Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqandda o‘tkazilgan sammiti natijalari.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzining ortib borishi. “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy etish” borasidagi davlat siyosati, huquqiy-normativ hujjatlarning qabul qilinishi, mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlar.

10-mavzu. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va natijalari.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar.

Ta’lim tizimi va sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zgarishlar. Sud tizimi va huquqni muxofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. **“**O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari.
2. Qadimgi va ilk o‘rta asrlar davlatchiligi: asosiy bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Rossiya imperiyasi va sovet hukmronligi davrida o‘lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlar.
4. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.
5. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati.
6. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.

7. O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

8. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

9. O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar.

10. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan o‘zgarishlar.

11. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.

12. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

13. O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.

14. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi.

15. Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. O‘zbek davlatchiligining tarixiy bosqichlari (O‘zbekiston hududidagi davlatlar tarixi misolida).

2. Amir-Temur buyuk davlat arbobi.

3. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

4. O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar mazmun va mohiyati.

5. Mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar.

6. Yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashda O‘rta Osiyo allomalari ilmiy merosining o‘rni (allomalarning ilmiy faoliyati misolida).

7. O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining faoliyati (o‘zgarish va muammolar)

8. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligi va sanoat sohasidagi o‘zgarishlar.

9. O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatining yaratilishi.

10. Milliy xavfsizlikni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar.

11. O‘zbekistonni halqaro reytinglardagi ko‘rsatgichlarini ko‘tarishning tarixiy va siyosiy ahamiyati.

12. Siyosiy-huquqiy sohadagi ustuvor halqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.

13. Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi ustuvor halqaro reytinglar va ularga O‘zbekistonning integratsiyalashuvi.

14. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari

15. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

- Mustaqillik yillarida mamlakatimiz bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning mazmun-mohiyatini, O‘zbekistonning eng yangi tarixida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning ahamiyatini;
- zamonaviy jarayonlarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyasi, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni va nufuzini ortib borishi kabi jarayonlarni tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan ***bilishi*** kerak;
- O‘zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o‘rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g‘oyasini qo‘llay bilish, atrofida sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o‘rnini anglash va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog‘liqligini bilish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi*** kerak.
- O‘zbekistonning eng yangi tarixini chuqur bilish, ma’naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy mustaqillik g‘oyalariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi ***malakalarga ega bo‘lishi*** kerak.

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma’nfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.

5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. - 416 bet.

Asosiy adabiyotlar

1. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.

2. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

3. Rasulova N. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. 1-qism. - Toshkent, 2021. - 186 bet.

4. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Azizxo‘jaev A.A. Chin o‘zbek ishi. - Toshkent, 2003.

2. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

3. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.

4. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. - Toshkent: Moliya, 2003.

5. O‘lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Sharq, 2006.

6. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H.Murtazaeva. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

7. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. Mas’ul muharrirlar: R.Abdullaev, Q.Rajabov, M.Rahimov. - Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

8. Murtazaeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.

9. Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2009.

10. Qoraqalpog‘iston tarixi (1917-1994 yy.). - Nukus, 1995.

11. G‘afforov Ya. Xalqaro tashkilotlar hamkorligi. 1-2-qism. – Toshkent, 2021.

12. O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir R.H.Murtazaeva. – Toshkent, 2020.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.

2. www.edu.uz.

3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

	Fan dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023-yil -avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Fan/modul uchun mas’ullar: R.H.Murtazayeva – O‘zMU Tarix fakulteti “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. D.B.Bobojonova – O‘zDJTU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. K.D.Saipova – O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori. A.A. Yermetov – O‘zMU “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. A.A.Odilov – O‘zMU Tarix fakulteti “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
	Taqrizchilar: R.E. Xoliqova – I.Karimov nomidagi TDTU O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, professor, tarix fanlari doktori X.E. Yunusova – O‘zMU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘MM rektori
_____
2023 yil “___” _____

Ro’yxatga olindi_№_____
2023 yil “31” avgust

“DINSHUNOSLIK”

FANINING
O‘QUV DASTURI

Ta’lim yo‘nalishi: Barcha nomutaxassis yo‘nalishlar talabalari uchun

Toshkent – 2023

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi DINB204	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Dinshunoslik	60	60	120

I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talaba-yoshlar tafakkurida dinning mazmun-mohiyati, dunyoning diniy manzarasi, diniy va falsafiy qarashlarning o’zaro bog‘liqligi, globallashuv va diniy jaryonlari hamda zamonaviy diniy harakatlar, diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmning davlat va jamiyat xavfsizligaga salbiy ta’sirini bilish va unga qarshi kurashishda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – diniy ta’limotlarning tarixi va rivojlanish bosqishlarini o‘rganish, dinning asl mazmuni bilan uning soxta talqinlarini farqlash malakasini shakllantirish;

- ekstremizm va terroizmning paydo bo‘lish sabablarini aniqlash, va uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish;
- diniy va dunyoviy jarayonlarga nisbatan mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish,
- diniy aqidaparastlikning profilaktikasi va unga qarshi kurashda egallangan nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo`llash,
- talabaning mustaqil ta’lim olishda egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Din ijtimoiy madaniyat hodisa sifatidagi ahamiyati.

Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik, diniy e’tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati. Dinning funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati. Din dunyoqarash shakli va uning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri. Dinlarning tasnifi. Dinlar paydo bo‘lishining geografik va xronologik tasnifi. Diniy e’tiqodlarning evolyutsiyasi: poleteizm, genoteizm, monoteizm. Ibtidoiy e’tiqodlar, milliy dinlar, jahon dinlarining shakllanishi va o‘ziga xos jihatlari. Diniy ta’limotlarda xudo va g‘ayritabiiy kuchlar haqidagi e’tiqodlar dinamikasi. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari. Dinshunoslikning boshqa ijtimiy fanlar bilan o`zaro aloqasi. Ijtimoy muhit va diniy an’analarning shaxsning diniy e’tiqodi va individual tarbiyasiga ta’siri. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari.

2-mavzu. Milliy dinlar

Yahudiylik dinining yuzaga kelishi. Tavrot yahudiylik dinining muqaddas kitobi. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylik. Hinduizm dinining mazmun mohiyati. Vedalar. Braxmanlik. Hinduiylik ta'limoti va xudolar panteoni. Jayniylik. Sikxiylik ta'limoti va manbalari. Konfutsiylik ta'limoti va uning Xitoy milliy diniga aylanish jarayonlari. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daochilik – falsafiy ta'limot. “Dao” tushunchasi tahlili. Sintoiylik. Yapon xalqi an'analari. Kami kulti.

3-mavzu: Zardushtiylik dini

Zardushtiylik dinining vujudga kelishi. Zardushtiylik shakllangan tarixiy sharoit. Zardushtiylik ta'limoti. Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal tamoyili. Govmard va shoh Yima. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari. Zardushtiylikda tabiatning ulug’lanishi. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi. “Avesto” matnlari. Avestoning tarkibiy tuzilishi.

4-mavzu. Buddaviylik dini

Buddaviylik dinining paydo bo‘lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari. Kushonlar imperiyasida buddaviylik dinining davlat dini darajasiga ko’tarilishi. An’anaviy buddaviylik. Tripitakan va buddaylikning muqaddas manbalari. O‘rta asrlarda Dzen buddaviylik ta'limoti. Chan buddizmning Xitoyda rivojlanishi. Modern buddaviylik. Globall buddaviylik. Hozirgi davrda buddaviylikning rivojlanishi. Tibetning buddaviylik maktabi va rohib Dalay Lamaning faoliyati. O‘zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.

5-mavzu. Xristianlik dini

Xristianlikning paydo bo‘lishi, aqidalari, asosiy yo‘nalishlari, ta’limotlari va manbalari. Katolitsizm va pravoslavlik dini yo‘nalishlarining o‘zaro farqli tomonlari. Protestantlik harakatining shakllanishi va rivojlanishi. Rim-katolik cherkovi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari. Sharqiy Yevropa pravoslavlik avtokefal cherkovlari. XV asrda Yevropada reformatorlik g’oyalari (Anglikan, lyuteran, kalvinizm cherkovlari va h.k.) Hozirgi davrda xristian dinining rivojlanishi va dunyo davlatlaridagi o‘rni. O‘zbekistonda xristian dinining rivojlanishi tarixi va hozirgi zamon.

6-mavzu. Islom dini

Islom dinining paydo bo‘lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar. Payg‘ambarlik va vahiyning talqini. Dastlabki musulmonlar jamoasining tashkil topishi. Hijrat va Madinada tashkil etilgan ilk islom davlatida boshqaruv shakli. Tavhid aqidasi. Islom dinining besh sharti. Xalifalikning tuzilishi va islom dini tarqalishining tarixi. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat. Qur’on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi. Qur’on, sura va oyat

tushunchalarining ma’nosi, qur’onshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi. Hadis tushunchasining mohiyati, hadislarning turlari va tasnifi. Buyuk muhaddislarning hayoti va ijodi. O‘zbekistonda hadisshunoslikning rivoji. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta`limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta`siri. Hozirgi davrda islom sivilizasiyasining ahamiyati.

7-mavzu. Islom dinining aqidaviy yo`nalishlari va maktablari

Kalom ilmining shakllanishi. Ilk aqidaviy adabiyotlarning islom dinining qabul qilinishidagi o`rni. Alloh sifatlari haqidagi g`oyalar. Esxatologiyaning mohgiyati: qiyomat va oxirat dunyosi. Islomda iymon, taqdir, rizq tushunchlarining talqini. Noan’anaviy e’tiqodlar: xorijiya, mu’taziliya, qarmatiya harakatlari.

Islom oqimlari va yo‘nalishlarining paydo bo’lishi sabablari, e’tiqodidagi bo‘linishlarning sabablari va oqibatlari. Sunniylik va shialik yo‘nalishlarining paydo bo‘lishi va ular e’tiqodidagi farqlar. Moturidiylik va ash’ariylik maktablari.

8 – mavzu Markaziy Osiyo tarixida Xanafiya mazxabining o`rni

Hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifa hayoti va ta'limoti. Xanafiyada mo‘'tadil islom tamoyili va bag‘rikenglik g‘oyalari. Hanafiyaning islom fiqxi tarixidagi o‘rni. Movarounnahrda hanafiy mazhabi va Markaziy Osiyo faqihlari. Movarounnahrda fiqh ilmining mashhur namoyandalari. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi. Islom huquqi (fiqhi) va uning taraqqiyot bosqichlari. Islom huquqi asosiy atamalari. Islom huquqi manbalari. Qur'on, sunna, ijmo va qiyos, masolihul-mursala, istihson va urf. Xanafiya mazhabining islom tasavvufi bilan bog‘liqlik asoslari. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji. Yusuf Hamadoniy. Abduxoliq G‘ijduvoniy. Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanishi. Tariqatchilikning zamonaviy ko‘rinishlari.

9 - mavzu. O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar

Konfessiya tushunchasining mohiyati va O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi. Dinning jamiyat integratsiyasi va barqarorligiga ta’siri. O‘zbekistonda konfessional jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me’yorlarga moslashuvining ahamiyati. Dunyo mamlakatlari va O`zbekiston konstitutsiyasida vijdon erkinligi huquqining ifodasi. O’zbekisatonda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qabul qilinishining tarixi va uning ahamiyati. Vijdon va e’tiqod erkinligining ta’rifi. Davlat va din munosabatlarini tartibga solishning tiplari. (Identifikatsion model, separatsion model va kooperatsion modellar). Sekulyarlashuv jarayoni. O`zbekistonning davlat sifatida shakillanishida din omili. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida O`zbekistonida diniy qarashlarga munosabatning asosiy jihatlari. BMTning 72 sessiyasida diniy bag`rikenglik haqidagi rezolyusiyani qabul qilish haqidagi taklifning ijtimoiy siyosiy ahamiyati.

10-mavzu. Zamonaviy diniy harakatlar va sektalar

Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta’limotlar tarixi. Bahoiylik va qodiyoniylik harakatlari. Xalqaro Krishnani anglash jamoasi faoliyati. Baxshillochilar jamoasi. Soxta xristianlik harakatlari. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan norasmiy diniy jamoalar. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining yo’nalishlari. Islom hamkorlik tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti. Arab davlatlari ligasining maqsadi va faoliyatining yo‘nalishlari. Islomiy banklar faoliyatining yo‘nalishlari.

11-mavzu. Kiber makonda diniy e`tiqod targ`ibotining ijtimoiy xavfi

Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo’ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati. Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy targ‘ibot usullari. O‘zbek tilida faoliyat yurituvchi ekstremistik jamoa va shaxslarning ijtimoiy hayotga salbiy ta’siri. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist’emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati. Hozirgi davrda virtual diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda xalqaro kuchlarni birlashtirishning ahamiyati.

12-mavzu. Missionerlik va prozelitizmning siyosiy-ijtimoiy xavfi

Missionerlik va prozelitizm tushunchasining mohiyati va rivojlanish bosqichlari. Xristian dini missionerligi va islom dini missionerligi. Xalqaro missionerlik tashkilotlari va ularning targ‘ibot usullari. Missionerlik targ`botida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar. Missionerlik va prozelitizmning targ`iboti va ularni bartaraf etish bo`yicha olib borilayotgan faoliyat dinamikasi. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari. Missionerlik va prozelitizmning ma`naviy barqarorlikka tahdidi hamda uni oldini olishning mexanizmlari.

13-mavzu. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizmning tarixi va yo`nalishlari

Diniy fundamentalizmning tarixi va rivojlanish bosqichlari. Radikalizmning paydo bo‘lishi sabablari va oqibatlari. Diniy radikalizmning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo’lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi. Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzutilgan diniy ekstremistik harakatlarning maqsadlari. Sog‘lom va ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan sof islomiy tushunchalarning g‘arazli maqsadlarda talqin etilishining oqibatlari. Terrorizmning mohiyati va uning shakllari. Diniy shiorlar ostidagi terrorizm amaliyotining oqibatlari. Xalqaro terrorizmning mohiyati. Al-Qoida, ixvanul muslimin, ISHID, boko xaram tashkilotlarining dunyo hamjamiyati xavfsizligiga tahdidi, ularga islom tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O‘zbekistonda sodir etilgan terroristik harakatlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta’siri: Turkiston islom harakati, akromiylar, soxta salafiylik, vahobiylik, xizbut tahrir va nurchilik harakatlari tarixi, maqsadlari, ularga islom

tashkilotlari va musulmon ulamolari tomonidan berilgan raddiyalar. O’zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo’nalishlari.

14-mavzu. Dunyo hamjamiyatining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasi

Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashi. Global terrorizmga qarshi global hamkorlikning yo‘nalishlari: BMTning global antiterror strategiyasining asosiy yo‘nalishlari: terrorizmning tarqalishi uchun qulay sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar, terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlatlarning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashish salohiyatini kuchaytirish, inson huquqlari va qonun ustuvorligiga umumiy hurmatni ta’minlash. Shanxay hamkorlik tashkiloti va mintaqaviy antiterror tuzulmasi faoliyatining ahamiyati. O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi. O’zbekistonda diniy terrorizmga qarshi «Jaholatga qarshi ma’rifat» g’oyasining ahamiyati. geosiyosiy jarayonlarda diniy omilning aks etishi.

15-mavzu. Duyoviy bilimlar va diniy e’tiqod birligiga erishishning ahamiyati

Yangi O‘zbekistonda dunyoviy va diniy ta`lim-tarbiyaga munosabat, diniy ta`limning yo`nalishlari. Yangi O`zbekiston oliy ta`lim muassasalarida diniy ta`limni tashkil etishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. O`z o`zini boshqarish organlarida (mahalla) diniy ta`lim va tarbiyani tashkil etishning ahamiyati. Diniy ta’limning g’oyalari va usullari. Ibodat va diniy marosimlarning shaxs komolotiga ta’siri. Duoning inson ongiga ta’siri va duoalar orqali siyosiy tilning shaxs dunyoqarashiga ta`siri. Insonning diniy jamoaga qo’shilishining psixologik jihatlari. Dinga estetik yondashish, diniy axloq, axloqiy qadryatlar va meyorlar dialektikasi. Iymon va e’tiqodning shakillanishiga ijtimoiy muhitning ta`siri. Diniy poklaninsh - katarsisning ijtimoiy psixololgik mohiyati. Texnogen sivilizatsiya davrida diniy e’tiqodni tarbiyalash va diniy matnlarni o`qishda hushyorlikni oshirishning zarurati. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag’rikenglikning shaxs kamoloti va e’tiqod erkinligini taminlashdagi roli. O’zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g`oyalarni o`rganishning ahamiyati. Dunyoviy hayot va diniy qadryatlarning mutanosibligi.

III. Seminar mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinshunoslik fanining predmeti va funksiyalari.
2. Dinshunoslik metodologiyasi va dinlarning tasnifi
3. Din psixologiyasi ijtimoiy ahamiyati
4. Milliy dinlarning ijtimoiy taraqqiyot va shaxs e’tiqodini ta’minlashadagi roli
5. Buddaviylik va xristianlik dining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri
6. Islom tafakkuri va madaniyatining shakillaninsh bosqichlari.
7. Qur’on, hadis, fiqh, aqida ilmlarining shakllanish tarixi
8. Islom huquqi va manbalari

9. Tasavvuf va hozirgi zamon
10. Islom inson ma’naviy madaniyatini tarbiyalash omillari haqida
11. O’zbekistonda diniy tashkilotlar va konfessiyalar faoliyati dinamikasi
12. Missionerlik va prozelitizmning diniy etiqodni tanlashga salbiy ta’siri.
13. Diniy fundamentalizm, radikalizm va terrorizm xavfsizlikka tahdid
14. Xalqaro tashkilotlarning terrorizmga qarshi kurashining ahamiyati
15. Diniy plyuralizm, diniy tolerantlik, bag’rikenglikning jamiyat hayotidagi o’rni.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Din, dinshunoslik, din falsafasi, teologiya, teosofiya, xudojo‘ylik, diniy e’tiqod, aqida, ilohiyot tushunchalarining mohiyati.
2. Dinshunoslikning fan sifatida shakllanishi, predmeti, funksiyalari, kategoriyalari.
3. Dinlarni tadqiq etish metodologiyasi: tipologik, qiyosiy, tarkibiy-funksional, genetik tahlil. Qiyosiy dinshunosliklikning metodlari.
4. Yahudiylik ta'limoti, an'ana va marosimlari.
5. Konfutsiylik ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar.
6. Zardushtiylikning teologik tizimi va diniy marosimlari.
7. Zardushtiylikda tabiatning ulug’lanishi.
8. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi.
9. Buddaviylik dinining paydo bo‘lish tarixi, asosiy ta'limotlari, oqimlari va manbalari.
10. O‘zbekistonda buddaviylik dinining tarixiy ildizlari (Qaratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa) va hozirgi zamon.
11. Xristianlikning paydo bo‘lishi, aqidalari, asosiy yo‘nalishlari, ta’limotlari va manbalari.
12. Islom dinining paydo bo‘lishidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlar.
13. Roshid xalifalar hukumronligi davridagi islohotlarning mohiyati. Ummaviylar va abbosiylar hukumronligi davrida dinga munosabat.
14. Movarounnahrda islom dinining tarqalishi va madrasa ta`limi shakllanishining ijtimoiy madaniy hayotga ta`siri.
15. Esxatologiyaning mohgiyati: qiyomat va oxirat dunyosi.
16. Islom oqimlari va yo‘nalishlarining paydo bo’lishi sabablari, e’tiqodidagi bo‘linishlarning sabablari va oqibatlari.
17. Hanafiy mazhabi rivojida Markaziy Osiyo faqihlarining roli va hissasi.
18. Tasavvuf tushunchasi va uning mohiyati. Tasavvufning kelib chiqishi, mazmuni va rivoji.
19. Konfessiya tushunchasining mohiyati va O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy konfessiyalarning tasnifi.
20. Diniy tashkilotlarning zamonaviy dunyoviy me’yorlarga moslashuvining ahamiyati.
21. Vijdon va e’tiqod erkinligining ta’rifi.
22. Islom va boshqa diniy aqidalar sinkretlashuvi natijasida shakllangan diniy ta’limotlar tarixi.

23. Kiber makon, kiber terrorizm, kiber zo’ravonlik (cyberbullying) tushunchalarining mohiyati.
24. Ijtimoiy tarmoqlarda diniy axborot ist’emoli madaniyatini tarbiyalashning zarurati.
25. Missionerlik targ`botida uslub va vositalarning zamonaviylashuvi: kiber makonda mafkuraviy tahdidlar.
26. O‘zbekistonda faoliyati kuzatilgan missionerlik harakatlari va ular faoliyatining oqibatlari.
27. Diniy aqidaparastlik (fanatizm), ekstremizm paydo bo’lishining ijtimoiy-tarixiy zaminlari va rivojlanishi.
28. O’zbekiston davlat siyosatida radikal oqimlarga qarshi kurashning yo’nalishlari.
29. O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurash tajribasi.
30. O’zbekiston yoshlarining diniy manbalardagi axloqiy tarbiyaga oid g`oyalarni o`rganishning ahamiyati.

V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

•dinning mohiyati, jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rni, dunyoviy va diniy bilmlarning mutanosibligi, din va fanning o’zaro aloqasi, diniy ta'lim va dunyoviy ta’limning maqsadlari haqida ***tasavvurga ega bo’lishi***;

• dinshunoslik fanini o’rganish orqali turli dinlarning mohiyati, ularning urf-odatlari va e'tiqodlari orasidagi farq va umumiylik, diniy va dunyoviy bilıımlarning insonlarning bag'rikengligi va o'zaro hurmatini tarbiyalashdagi roli, jahon dinlari, e'tiqodlari va urf odatlari an’analari, diniy-axloqiy g‘oyalarning tahlili; dinshunoslikning asosiy tushunchalari, funksiyalari, buddaviylik dini va uninhg g`yalari; xristianlik dini tarixi va asosiy g`oyalar, katolik pravoslav dininig asosiy g`oyalari va ylardagi farqlar, protestantizm dinidagi plyuralizm, islom ta’limotiga oid qarashlar: sunniylik, shialik va xorijiylar, ularning yo‘nalishi va mohiyati; kalom ilmiga oid g`oyalar va mu’taziliylar maktabi munosabatlari; diniy fundamentalizm, ekstremizm, fanatizmni vujudga keltirgan manbalar va omillarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

•diniy e`tiqodning mohiyatini maxalliy urf-odat, an’analarni tushunish, turli dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar bilan umumiy murosa qilish, ular bilan mulokot qilish madaniyati; din nomi bilan sun’iy boglangan ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga karshi kurashish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash
- interfaol keys-stadilar;
- blits- so’rov;
- guruhlarda ishlash;

- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O’quv qo’llanma. – T.: «O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O’quv qo’llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston.. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. R – 341.
7. A.Azami. Vvedenie v xadisovedenie. Kazan: 2011
8. A.Fitrat. Tanlangan asarlar –Toshkent: Ma’naviyat, 2010 -301 b
9. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
10. Rumiy J. Masnaviy. 40 rivoyatga sharx. -Toshkent: Navruz, 2019
11. Abu Xomid G‘azzoliy Kimei saodat//Ikki dune saodatiga eltuvchi bilim. - Samarkand: Imom Buxoriy xalkaro markazi, 2019
12. Islomov Z., Haydarov I. Xristianlik: ibodatxona, ibodat va marosimlari. – Toshkent: Qaqnus nashriyoti, 2020.
13. G’oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.

14. David L. McMahan. The Making of Buddhist Modernism. – Oxfordshire: “Oxford University Press”, 2008.
15. Todd M. Johnson. Religious Adherents of the World by Continent and Region // Religions of the World: A Comprehensive Encyclopedia of Beliefs and Practices / J. Gordon Melton, Martin Baumann. – Oxford, England: “ABC CLIO”, 2010.

Axborot manbalari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.gov.uz.

Fan dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023-yil -avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
Fan/modul uchun mas’ullar: **Shermuxamedova N.A.** – O‘zMU, “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor **Madayeva Sh.O.** – O‘zMU, “Falsafa va mantiq” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor **Muxammadjonova L.A.** – O‘zMU, “Etika va estetika” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, professor **Jalilov B.X.** – O‘zMU, “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dosenti, falsafa fanlari nomzodi **Komilov D.Z**. – O‘zMU, “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dosenti falsafa doktori PhD
Taqrizchilar: **Nishonova O. Dj.** – O‘zMU “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasining professori falsafa fanlari doktori **Ziyotov Shovosil** – Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi direkroti, tarix fanlari doktori DSc, professor **Alimova Maxfuza** – Uzbekiston xalqaro islom akademiyasi Dinshunoslik va jahon dinlarini o`rganish YUNESKO kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dosent

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
(OTM rektori)
2023 yil “__” iyun

Ro‘yxatga olindi: № _____
2023 yil “8” avgust

FALSAFA
fani

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2023

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi FALB204	O‘quv yili 2023-2024	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa	60	60	120

I. Fanning mazmuni.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalar dunyoqarashining umumlashgan tizimini yaratish va unda inson o‘rnini ko‘rsatish, insonning dunyoga bo‘lgan bilish, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy, estetik va boshqa munosabatlarini shakllantirish hamda to‘g‘ri fikrlash mahoratini o‘rgatishdan iborat**;**

Fanning vazifalari – talabalarning dunyoni bilish va uni o`zgartirishga tanqidiy tafakkur nuqtai nazardan yondashuvi, tabiiy ilmiy bilimlarning ijtimoiy ahamiyati; texnika va texnologiyalarning inson pragmatik ehtiyojlariga javob sifatidagi evolyusiyasi; milliy qadriyatlar, madaniyat va ommaviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va farqi, dunyoni bilish, haqiqatni anglashda amaliyot va faoliyat uyg‘unligini ta’minlashning ahamiyati, to‘g‘ri fikrning ijobiy maqsadlarga yo‘naltirishdagi o‘rni; ta’lim falsafasi va falsafa ta’limining dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni, global korrupsiyaning sabablari, shakllarini bilish va ularga qarshi kurashish, dunyoviy bilim va malakalarni yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlar jarayonida to‘liq namoyon qilish, ijtimoiy va professional mas’uliyatni va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo`shish tuyg`usini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-MODUL. FALSAFA VA MANTIQ

1-mavzu. Falsafa va uning jamiyat hayotidagi roli

Falsafaning predmeti, asosiy masalalari, tuzulmasi, funksiyalari. Falsafaning paydo bo‘lishi va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik va diniy dunyoqarash, falsafiy va ilmiy dunyoqarash, ularning o‘aro aloqadorligi hamda o‘ziga xosligi. Raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlar dunyoqarashida axboriy tahdidlarga qarshi imunitetni shakllantirishda falsafaning ahamiyati.

2-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari: Sharq falsafasi

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo‘lishi. Misr va Bobilda olam va odamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologik

tasavvurlarning shakllanishi. Qadimgi Hindistonda olam va odamning kelib chiqishi, ularning o‘zaro munosabati borasidagi falsafiy qarashlarning rivojlanishi. Vedalar va Upanishadlar qadimgi hind donishmandligining manbai sifatida. Qadimgi hind falsafiy maktablari. “Avesto” qadimgi davrda Markaziy Osiyoda rivojlangan inson, tabiat, jamiyat va davlatchilik haqidagi falsafiy g‘oyalarning ilk manbai sifatida. Daochilik, Konfutsiychilik, Moizm, Legizm singari qadimgi Xitoy falsafiy maktablarining borliq, inson, jamiyat va davlatning mohiyati, ijtimoiy-siyosiy tartibot, yoshlarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqidagi g‘oyalari.

Arab-musulmon sivilizatsiyasi va islom falsafasining vujudga kelishi. Islom tamaddunida diniy va dunyoviy ilmlarning o‘zaro uyg‘unlikdagi taraqqiyoti (Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abubakr ar-Roziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sinolarning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy falsafiy qarashlari). Islomiy ilmlar rivojida Xuroson va Movarounnahrdan yetishib chiqqan olimlar hissasi. Ilk o‘rta asr Sharq falsafasi va uyg‘onish davri. Ilk o‘rta asrda tasavvuf va islom ilohiyotshunoslik maktablari ta’limotlari.

Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy falsafasi. Temuriylar davrida tabiiy-ilmiy bilimlar taraqqiyoti (Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchilarning tabiatshunoslik fanlariga qo‘shgan hissasi).

Yangi davr Sharq tasavvufi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg‘or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. Sharq istilosi bilan bog‘liq uyg‘onish harakatlari, osiyotsentrizm, panturkizm, panislomizm, ma’rifatparvarlik va jadidchilik ta’limotlari. O‘zbekistonda falsafiy fikrlar rivoji. O‘zbekistonda ajdodlar me’rosini tiklash va ularni jahonda keng ommalashtirish borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati.

3-mavzu. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G‘arb falsafasi

Qadimgi Yunonistonda falsafa ilmining shakllanishi. Sokratgacha bo‘lgan davr falsafasida olamning paydo bo‘lishi, uning mohiyatida yotuvchi unsurlar, borliqning tuzulmasi unda ro‘y beradigan o‘zgarishlar, taraqqiyot va tanazzulning sabablari, borliqning o‘zgarmas asoslari (suv, havo, tuproq, olov, apeyron, atom,) haqidagi Melit maktabi, Geraklit, Pifagor, Eley maktabi, Empedokl, Anaksagorlar qarashlari. Suqrotning va sofistlarning inson haqidagi qarashlari. Aflotun va Arastuning borliq paydo bo‘lishi, insonning bilish imkoniyatlari, axloqiy fazilatlar, jamiyat hamda davlat borasidagi g‘oyalari. Ellinizm davri falsafaning inson hayotidagi o‘rni, fizika, mantiq, axloq ilmlarining mutanosibligi, erkinlik, shubhaning bilish jarayonidagi ahamiyati g‘oyalarining tarqalishi.

9.	**Taqrizchilar:** Sh.F.Madraximov - O'zbekiston davlat milliy universiteti "Sun'iy intellekt" kafedrasi mudiri,texnika fanlari doktori (Dsc), dotsent R.Ya.Mamajanov – DTPI, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori t.f.n.dotsenti.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN

DTPI rektori: _____ O.A.Ruziyev

“___” _____ 2025-yil

Ro‘yxatga olindi: № - 382.1.21.2025

*2025-yil “*26*” *06*.*

O‘RNATILGAN TIZIMLAR FANI O‘QUV DASTURI

kunduzgi bo‘lim uchun

Bilim sohasi:	600 000	- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000	- Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500	- Kompyuter injiniringi
	60610300	- Sun’iy intellekt

DENOV – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi EMBSI6MB	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 6	Kreditlar 6
Fan/modul turi Asosiy fan	Ta’lim tili: O‘zbek		Haftadagi dars soatlari: 6

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	O‘rnatilgan tizimlar	90	90	180

2

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsadi – talabalarni mikroprotsessorlar va mikrokontrollerlar asosida ishlovchi, real vaqt rejimida vazifalarni bajaruvchi, apparat va dasturiy ta'minotning uzviy integratsiyasiga asoslangan o‘rnatilgan (embedded) tizimlar bilan tanishtirish, ularning ichki tuzilishi, ishlash prinsiplari, funksional imkoniyatlari va dasturlash uslublari bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fan doirasida talabalar o‘rnatilgan tizimlarning qanday yaratilishi, qanday arxitektura asosida ishlashi, ular qanday qurilmalarga o‘rnatilishi va real hayotda qanday muammolarni hal qilishi haqida chuqur bilimga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, talabalar zamonaviy mikrokontrollerlar (masalan: AVR, ARM, RISC-V, PIC) yordamida dastur yozish, tashqi qurilmalar bilan ishlash, interfeyslar (UART, SPI, I2C) va sensor/aktuatorlar bilan integratsiyani amalga oshirish ko‘nikmalarini egallaydilar

Ushbu fan orqali o‘quvchilarda IoT (Internet of Things), aqlli qurilmalar, sanoat avtomatizatsiyasi, tibbiy elektronika, robototexnika va boshqa zamonaviy texnologiyalar uchun asos bo‘ladigan o‘rnatilgan tizimlarni loyihalash, sozlash va testlash bo‘yicha mustaqil texnik va muhandislik yondashuvlari rivojlanadi. Shuningdek, talabalar real vaqt tizimlarining ishlash tamoyillarini, resurslar bilan samarali ishlash, energiya tejamkorlik, xavfsizlik va ishonchlilik kabi dolzarb muammolarni tahlil qilish hamda yechish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Fanining vazifalari:

✓ O‘rnatilgan tizimlar tushunchasi – talabalarni o‘rnatilgan tizimlar, ularning farqlari va qo‘llanish sohalari bilan tanishtirish.

✓ Mikrokontroller va mikroprotsessorlar arxitekturasi – AVR, ARM, PIC, RISC-V kabi arxitekturalarning ishlash printsiplari, registrlar tizimi, xotira boshqaruvi haqida tushuncha berish.

✓ Dasturlash asoslari – C/C++ tilida o‘rnatilgan tizimlar uchun dastur tuzish, qurilmaviy modullar bilan ishlash, real vaqt tizimlarini boshqarish asoslarini o‘rgatish.

✓ Tizimli interfeyslar va protokollar – UART, SPI, I2C, GPIO, ADC/DAC, PWM kabi tizim interfeyslari bilan ishlashni o‘rgatish.

✓ Sensor va aktuatorlar bilan ishlash – turli xil sensorlar (harorat, harakat, yorug‘lik, bosim) va aktuatorlar (motorlar, displeylar, relélar) bilan amaliy aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirish.

✓ Loyihaviy ishlanma – talabalarni kichik hajmli real o‘rnatilgan tizimlar (masalan: IoT qurilmalari, aqlli uy qurilmalari, monitoring tizimlari) loyihasini ishlab chiqish va uni amalda sinab ko‘rishga yo‘naltirish.

✓ Real vaqt operatsion tizimlari (RTOS) asoslarini tushuntirish va ularni o‘rnatilgan tizimlarda qo‘llashni o‘rgatish.

✓ Tizimlarni sinash va xatoliklarni tuzatish – debug, monitoring va testlash vositalari orqali tizimni to‘g‘ri ishlashini ta’minlash.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagilar kiradi:

O‘rnatilgan tizimlar

1-mavzu: O‘rnatilgan tizimlarga kirish, asosiy tushunchalar

Ushbu mavzuda o‘rnatilgan tizim (embedded system) tushunchasi, ularning boshqa kompyuter tizimlaridan farqlari va kundalik hayotdagi o‘rni tushuntiriladi. Real hayotdagi misollar (masalan, smartfonlar, avtomobil boshqaruv bloklari) orqali o‘rnatilgan tizimlarning ishlash mexanizmi yoritiladi. Bu dars laboratoriya ishlariga tayyorgarlik sifatida xizmat qiladi. Talabalar kelajakda kichik embedded loyihalarni yaratishga tayyorlanadilar.

2-mavzu: O‘rnatilgan tizimlarning qo‘llanish sohalari

Bu darsda o‘rnatilgan tizimlar qanday sohalarda keng qo‘llanilishi – tibbiyot, sanoat avtomatizatsiyasi, robototexnika, IoT va maishiy texnika misolida ko‘rib chiqiladi. Har bir sohada embedded tizim qanday muammolarni hal qilishi va samaradorligi muhokama qilinadi. Amaliy mashg‘ulotlar uchun dastlabki ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar mustaqil loyiha tanlashda aniq yo‘nalish topa oladilar.

3-mavzu: O‘rnatilgan tizimlar arxitekturasi

Tizim arxitekturasi, ya’ni CPU, RAM, ROM, I/O, va boshqa komponentlarning o‘zaro aloqasi va funksiyasi o‘rganiladi. Har bir komponentning vazifasi misollar bilan tushuntiriladi. Tizim diagrammasi asosida laboratoriyada sxematik modellashtirish amalga oshiriladi. Talabalar mustaqil tizim dizayniga tayyorlanadi.

4-mavzu: Mikrokontrollerlar va mikroprotsessorlar, taqqoslash

Mikrokontroller va mikroprotsessorlarning arxitekturasi, resurslari va qo‘llanish sohalari taqqoslanadi. Real qurilmalarda (masalan, Arduino va Intel CPU)

CamScanner yordamida skanerlangan

qanday ishlatilishi ko‘rib chiqiladi. Laboratoriyada Arduino bilan tanishish boshlanadi. Talaba mos qurilmani loyiha talablariga qarab tanlay olishni o‘rganadi.

5-mavzu: Mikrokontrollerlarning ichki tuzilishi

Mikrokontroller ichidagi ALU, registrlar, taymerlar, ADC, DAC, GPIO pinlarining vazifasi tushuntiriladi. Bu komponentlarning dastur bilan qanday boshqarilishi misollar bilan ko‘rsatib beriladi. Laboratoriyada GPIO bilan LED yoki tugma ulash bajariladi. Bu bilimlar har qanday embedded qurilma asosidir.

6-mavzu: O‘rnatilgan tizimlar uchun C/C++ dasturlash asoslari

C/C++ dasturlash sintaksisi, operatorlar, funksiya va massivlar orqali mikrokontroller dasturini yozish asoslari beriladi. Har bir kod parchasi qurilmaning real ish faoliyatiga qanday ta’sir qilishini tushunish o‘rgatiladi. Laboratoriyada LED blink dasturi yoziladi. Bu bosqich dasturlash asosini shakllantiradi.

7-mavzu: Dasturlash muhiti va vositalari (IDE, toolchain)

Arduino IDE, Keil, MPLAB kabi muhiti, kompilyator, assembler, debugger, linker vositalari tanishtiriladi. Dastur yozish, kompilyatsiya va yuklash bosqichlari o‘rganiladi. Amalda dastur yozishdan avval zarur tayyorgarlik shakllanadi. Talaba mustaqil dasturlash muhiti bilan ishlashga o‘rgatiladi.

8-mavzu: Raqamli interfeyslar (GPIO, LED, klaviatura)

Raqamli kirish-chiqish qurilmalari qanday ulanishi, GPIO pinlar qanday sozlanishi, LED va tugmalarni boshqarish mexanizmi tushuntiriladi. Laboratoriyada GPIO bilan ishlash, tugma bosilganda LED yoqish kabi tajribalar bajariladi. Bu asosiy foydalanuvchi interfeysi qurilmalariga tayyorgarlikdir.

9-mavzu: Analog interfeyslar (ADC, DAC)

Analog sensorlardan raqamli qiymat olish (ADC) va chiqishda analog signal hosil qilish (DAC) prinsipi tushuntiriladi. Harorat sensori misolida laboratoriya ishlari amalga oshiriladi. Talaba real dunyo fizik signalini o‘lchab tahlil qilishga o‘rganadi.

10-mavzu: UART, SPI va I2C interfeyslari

Ushbu interfeyslar orqali ma’lumot almashish texnikasi, ulanish sxemasi, signal tuzilishi va tezligi haqida to‘liq tahlil qilinadi. Mikrokontrollerlar o‘rtasida ma’lumot uzatish laboratoriyada tajriba qilinadi. Har bir protokolga oid afzalliklar va cheklovlar solishtiriladi.

11-mavzu: Sensor turlari va ishlash prinsipi

Harorat, yorug‘lik, harakat, bosim, ultratovush sensorlari va ularning ishlash prinsipi tushuntiriladi. Laboratoriyada kamida 2 xil sensor ulanadi. Real vaqt monitoring loyihalariga asos bo‘ladi.

12-mavzu: Aktuatorlar (motor, rele, servo)

Motorlar, relelar, servo va stepper motorlar qanday boshqarilishi, ularning signal talablari va ishlash sikli tushuntiriladi. Laboratoriyada servo motor burchagini o‘zgartirish tajribasi o‘tkaziladi.

13-mavzu: Taymer va hisoblagichlar

Mikrokontrollerdagi taymerlar qanday delay hosil qilish, vaqt o‘lchash, chastota aniqlashda ishlatilishi tushuntiriladi. Amaliy mashg‘ulotda LED ni 1 soniyada o‘chirib-yoqish topshirig‘i bajariladi.

14-mavzu: Uzilishlar (Interrupts)

Interruptlar bilan yuqori samarali dastur yaratish prinsipi o‘rgatiladi. ISR (Interrupt Service Routine) tushunchasi misollar bilan ko‘rsatiladi. Tugmani bosishda signal darhol qabul qilinadi.

15-mavzu: RTOS ga kirish

Real vaqt operatsion tizimi tushunchasi, nima uchun kerakligi, real muhitda tasklar qanday boshqarilishi tushuntiriladi. Misollar orqali an’anaviy tizimlardan farqi tahlil qilinadi.

16-mavzu: RTOSda vazifalar va resurslarni boshqarish

Ushbu darsda RTOSda bir nechta task (vazifa) larni bir vaqtning o‘zida samarali bajarish jarayoni, tasklar ustuvorligi, rejalashtiruvchi (scheduler) tizimi va vaqt ajratish (time slicing) mexanizmlari keng tushuntiriladi. Shuningdek, resurslarga kirishni boshqarish uchun mutex, semaphore kabi vositalarning amaliy ishlatilishi ko‘rib chiqiladi. Laboratoriya ishi: 2 ta task navbat bilan LEDni boshqaradi. Bu mavzu ko‘p vazifali embedded tizimlar uchun poydevor bo‘ladi.

17-mavzu: Energiya samaradorligi va quvvat boshqaruvi

O‘rnatilgan tizimlar ko‘pincha batareyada ishlaydi, shuning uchun quvvatni tejash muhimdir. Sleep, deep-sleep rejimlari, komponentlarni vaqtincha o‘chirib turish, protsessor chastotasini dinamik o‘zgartirish kabi energiya tejovchi strategiyalar o‘rganiladi. Laboratoriyada LED ni 30 soniyada yoqib o‘chirish orqali kam energiya sarfi ko‘rsatiladi. Talabalar ushbu bilimlar asosida uzoq ishlovchi qurilma loyihalashni o‘rganadi.

18-mavzu: O‘rnatilgan tizimlarda xavfsizlik va muhofaza

Tizim xavfsizligini ta’minlash uchun kriptografik metodlar (masalan, AES, RSA), kirishni nazorat qilish, ma’lumotlarni shifrlash, va xakerlikdan himoyalash usullari tushuntiriladi. Real hayotdagi xavfsizlik buzilishlari (masalan, aqlli eshiklar yoki kameralar) misolida tahlil qilinadi. Laboratoriyada shifrlangan ma’lumot yuborish tajribasi o‘tkaziladi. Bu mavzu IoT va tarmoqda ishlovchi qurilmalarning muhim jihatidir.

19-mavzu: O‘rnatilgan tizimlar va IoT (Internet of Things)

CamScanner yordamida skanerlangan

CamScanner yordamida skanerlangan

IoT tizimlarida o'rnatilgan qurilmalar qanday ishlashi, bulutga qanday ulanishi, ma'lumotlar qanday yig'ilishi va ishlov berilishi tushuntiriladi. Tizim komponentlari: sensor, mikrokontroller, tarmoq moduli va bulut platformalari tanishtiriladi. Laboratoriyada harorat sensoridan olingan ma'lumotni Wi-Fi orqali yuborish amaliyoti o'tkaziladi. Talabalar zamonaviy IoT qurilmalarini yaratishga tayyor bo'ladi.

20-mavzu: IoT qurilmalari va ularning tarmoq protokollari

MQTT, CoAP, HTTP, TCP/IP kabi protokollar qanday ishlashi, ularning farqlari, xavfsizlik jihatlari, tarmoqqa ulanish ssenariylari chuqur o'rganiladi. Wi-Fi va Ethernet orqali mikrokontrollerning tarmoqga ulanishi laboratoriyada amalga oshiriladi. Bu mavzu IoT loyihalarining dasturiy qismiga asos bo'ladi.

21-mavzu: O'rnatilgan tizimlarda simsiz aloqa (Wi-Fi, Bluetooth, Zigbee)

Turli simsiz aloqa texnologiyalari (Bluetooth Low Energy, Zigbee, Wi-Fi) qanday ishlaydi, ularning energiya sarfi, tarmoq arxitekturasi, xavfsizlik darajasi tahlil qilinadi. Amaliy mashg'ulotda ESP32 moduli orqali simsiz ma'lumot yuborish tajribasi bajariladi. Talabalar simsiz integratsiyani mustaqil loyihalarga qo'llashni o'rganadilar.

22-mavzu: Protsessorlar arxitekturasi: RISC, ARM, AVR misolida

RISC (Reduced Instruction Set Computing) va CISC (Complex Instruction Set Computing) arxitekturalarining taqqoslanishi, ARM va AVR asosidagi mikrokontrollerlarning xususiyatlari keng muhokama qilinadi. Har bir arxitekturaning samaradorlik, energiya tejamkorligi, dasturlash qulayligi kabi jihatlari tahlil qilinadi. Bu dars loyiha ehtiyo.ariga mos mikrokontroller tanlashga yordam beradi.

23-mavzu: O'rnatilgan tizimlar uchun testlash va xatoliklarni tuzatish

Tizimlarda yuzaga keladigan dasturiy va apparat xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish usullari (unit testing, integration testing, black-box testing) tushuntiriladi. Real koddagi xatoliklarni aniqlash uchun test skriptlar yoziladi. Laboratoriyada noto'g'ri ishlayotgan dastur ustida tahlil o'tkaziladi. Bu bosqich sifatli mahsulot yaratish uchun zarurdir.

24-mavzu: Debug vositalari va protokollari (JTAG, Serial Monitor)

JTAG, SWD (Serial Wire Debug), va Serial Monitor kabi vositalar yordamida dastur bajarilishini qadam-baqadam kuzatish, breakpoint o'rnatish, xatolikni izlash jarayoni amaliy ko'rinishda o'rganiladi. Tizim ishini real vaqtda tekshirish uchun monitoring usullari qo'llaniladi. Bu dars xatoliklar yuzasidan tezkor tashxis qo'yish ko'nikmasini shakllantiradi.

25-mavzu: O'rnatilgan tizimlar loyihalash metodikasi

Talabalar o'rnatilgan tizim loyihasini yaratishda bosqichma-bosqich yondashuv:

ehtiyoj tahlili, texnik topshiriq, blok diagramma, funksional diagramma, dastur algoritmini yaratish, prototip tayyorlash va testlash bo'yicha metodikani o'rganadilar. Bu dars yakuniy loyiha uchun asos bo'ladi.

26-mavzu: Dasturiy vositalar va apparat integratsiyasi

Dastur va qurilmaning o'zaro integratsiyasi, signal va buyruq almashinuvi, xatolik yuz beradigan ssenariylar va ularning bartaraf etilishi ko'rib chiqiladi. Har bir komponent bir-biriga to'g'ri ulanishi va mos ishlashi uchun talablar tahlil qilinadi. Laboratoriyada dastur kodidagi delayning apparatga ta'siri sinovdan o'tkaziladi.

27-mavzu: Low-Power tizimlar: batareya bilan ishlash

Kam quvvatli tizimlar dizayni, batareya resurslarini tejash strategiyalari, faol va passiv rejimlar, qisqa muddatli signal uzatish, quvvatni tejovchi modullar tanlash yo'llari o'rganiladi. Bu dars mobil yoki uzoq muddat ishlovchi qurilmalar uchun zarur.

28-mavzu: Sanoat va avtomobil sohasida o'rnatilgan tizimlar

PLC, SCADA, ECU, CAN protokol kabi texnologiyalar yordamida sanoat va avtomobil sohasida ishlatiladigan o'rnatilgan tizimlar tahlil qilinadi. Real ishlab chiqarish muhitidagi sensor-aktuator zanjiri qanday ishlashi ko'rsatiladi.

29-mavzu: Embedded tizimlarda zamonaviy tendensiyalar

Sun'iy intellekt (AI), mashinali o'rganish (ML), edge computing, aqlli qurilmalar, aqlli uy texnologiyalari bilan o'rnatilgan tizimlar integratsiyasi tahlil qilinadi. Talabalar hozirgi va kelajakdagi innovatsion yo'nalishlardan xabardor bo'ladi.

30-mavzu: O'rnatilgan tizim loyihalarining tahlili (Case Study)

Real hayotda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan embedded loyihalar – masalan, aqlli termostat, monitoring tizimlari, aqlli suv sug'orish qurilmasi kabi loyihalar bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Talabalar bu misollar asosida o'z mustaqil loyiha g'oyalarini shakllantirishadi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Arduino platformasida dasturiy muhit bilan tanishish
2. LED va tugmalarni ulash (GPIO portlar bilan ishlash)
3. Raqamli va analog sensorlarni ulash (masalan, harorat sensori)
4. PWM orqali LED yorqinligini boshqarish
5. LCD yoki OLED displeyga ma'lumot chiqarish
6. UART orqali kompyuter bilan bog'lanish (Serial Monitor)
7. I2C interfeysi orqali sensorni o'qish
8. SPI orqali displey yoki xotira bilan ishlash
9. Harorat va namlik sensoridan real vaqtda ma'lumot olish (DHT11)

CamScanner yordamida skanerlangan

	10. Servo motorni boshqarish (RC va PWM) 11. Bluetooth moduli orqali mobil qurilma bilan aloqa o'rnatish 12. ESP32/ESP8266 orqali Wi-Fi orqali ma'lumot uzatish 13. Real vaqt soati (RTC) bilan ishlash (DS3231) 14. Protokollar orqali ko'p mikrokontroller o'rtasida aloqa o'rnatish 15. Yakuniy loyiha, sensorli ma'lumotni tarmoq orqali uzatadigan IoT qurilmasi yasash **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar** *Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:* 1. O'rnatilgan tizimlarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari haqida tahliliy maqola yozish 2. Mikrokontroller va mikroprotsessor arxitekturalarini solishtirish (ARM vs AVR) 3. Arduino asosida harorat monitoring tizimi loyihasi 4. IoT qurilmasining umumiy arxitekturasini sxema va misollar bilan tushuntirish 5. ESP32 yordamida simsiz (Wi-Fi) ma'lumot uzatish mexanizmini ishlab chiqish 6. C/C++ da sensorlardan o'qish va qiymatni chiqarish dasturini yozish 7. O'rnatilgan tizimlar va bulutli platformalar (Firebase, Blynk) o'rtasidagi integratsiya 8. Real vaqt operatsion tizimi (RTOS) asoslari haqida referat tayyorlash 9. UART, SPI, I2C protokollarining taqqoslovchi tahlili va real misollari 10. Kam energiya sarflovchi tizimlarni yaratish: texnologik usullar 11. O'rnatilgan tizimlarda ishlatiladigan xavfsizlik algoritmlari haqida tahliliy sharh 12. Loyiha: LED va tugma orqali foydalanuvchi interfeysi qurish (GPIO asosida) 13. Mikrokontroller yordamida servo motorni boshqarish algoritmini yaratish 14. AQSh yoki Yaponiya kompaniyalarining embedded tizimdagi ilg'or ishlanmalari haqida tahlil 15. DHT11/DHT22 sensoridan foydalanib havoning harorati va namligini o'lchovchi qurilma loyihasi 16. Tarmoq protokollari asosida IoT qurilma dizayni (MQTT, CoAP) 17. ADC orqali olingan signalni C tilida qayta ishlash algoritmini yozish 18. Raspberry Pi va Arduino: imkoniyatlari, farqlari va ularning o'rni 19. O'rnatilgan tizimlar bilan bog'liq xatoliklar va ularni topish usullari haqida tahlil

	20. Case study: avtomobil boshqaruv tizimidagi embedded qurilmaning ishlash printsipi 21. O'rnatilgan tizimlarning ta'limda qo'llanilishi: STEM loyihalari asosida 22. Bluetooth orqali mobil ilova bilan aloqa o'rnatish (HC-05 bilan) 23. Elektron rozetka loyihasi: xavfsizlik, avtomatlashtirish va monitoring 24. OLED yoki LCD displeyga real vaqt ma'lumot chiqarish loyihasi 25. O'rnatilgan tizimlar uchun dasturlash muhiti (Arduino IDE, Keil, MPLAB) haqida tahlil 26. O'rnatilgan tizimlarda ishlatiladigan sensorlar turlari va ularning qo'llanilishi 27. RTOS bilan ishlaydigan oddiy multi-tasking dastur namunasi 28. Real vaqt monitoring qilish uchun aqlli datchik loyihasini ishlab chiqish 29. O'rnatilgan tizimlar va sun'iy intellekt integratsiyasi: imkoniyat va cheklovlar 30. Mustaqil loyiha: tanlangan mikroprotsessor asosida kichik IoT qurilmasini loyihalash
3	**V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:** Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida talaba o'rnatilgan tizimlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va amaliy qo'llanilish sohalariga oid chuqur bilimlarga ega bo'ladi. Mikrokontrollerlar va mikroprotsessorlar asosida ishlaydigan tizimlarni mustaqil loyihalash, dasturlash tashqi qurilmalar bilan interfeys o'rnatish, sensorlar va aktuatorlar bilan ishlash, real vaqt tizimlari (RTOS) asosida vazifalarni boshqarish hamda energiya samaradorligini ta'minlash ko'nikmalarini egallaydi. Talaba amaliy mashg'ulotlar orqali dasturiy-apparat muhitida ishlash tajribasini orttiradi, simsiz aloqa va IoT texnologiyalarini qo'llashni o'rganadi, testlash va xatoliklarni bartaraf etish usullarini amaliyotda qo'llay oladi. Bundan tashqari, texnik hujjat tayyorlash, jamoaviy ishlash, tizimiy fikrlash va innovatsion yondashuv asosida mustaqil loyiha ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'ladi. ***Ko'nikmalar jihatidan:*** **Mikrokontrollerlar bilan ishlash** – mikrokontroller (masalan, Arduino, ESP32, STM32) asosida qurilmani dasturlash va boshqarishni biladi. **Sensor va aktuatorlarni ulash** – harorat, yorug'lik, harakat kabi sensorlarni va servo motor, relé kabi aktuatorlarni tizimga to'g'ri ulab, dastur orqali boshqaradi. **Dastur yozish va yuklash** – C/C++ dasturlash tillarida mikrokontroller uchun kod yozish, kompilyatsiya qilish va qurilmaga yuklashni mustaqil bajara oladi. **Tizimlarni interfeyslash** – UART, SPI, I2C kabi kommunikatsiya protokollari

	orqali turli qurilmalarni o‘zaro bog‘laydi va sinxronlashtiradi. **RTOS asosida dastur tuzish** – Real vaqt operatsion tizimi (RTOS)da bir nechta tasklar bilan ishlay oladi, rejalashtiruvchi (scheduler) mexanizmini qo‘llaydi. **Debug va testlash** – dasturdagi xatoliklarni aniqlaydi, debugging vositalaridan (JTAG, Serial Monitor) foydalanadi va tizimni testdan o‘tkazadi. **Simsiz aloqa modullari bilan ishlash** – Wi-Fi (ESP), Bluetooth (HC-05/06), Zigbee modullari bilan simsiz ma’lumot almashinuvini tashkil etadi. **IoT qurilmalarini loyihalash** – sensorli ma’lumotni yig‘ib, uni Wi-Fi orqali bulutga yuboruvchi qurilma loyihasini ishlab chiqadi. **Energiya tejovchi rejimlar** – mikrokontrollerlarda “low-power” rejimlarni sozlaydi, quvvat sarfini kamaytirish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘ladi. **Mustaqil loyiha yaratish** – kichik hajmdagi o‘rnatilgan tizimga ega qurilmani mustaqil ishlab chiqadi, sxemasini chizadi, dasturini yozadi va testdan o‘tkazadi.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** ma’ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulorlarda muntazam qatnashish; tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish; o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; munozaralar va o‘quv konferensiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; joriy va oraliq nazorat vazifa va topshiriqlarini bajarish; mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; yakuniy nazorat topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. R.P.Abdurakhmanov., O‘rnatilgan tizimlar., MechaUz., Tashkent University of Information Technologies., Tashkent 2023., 253 bet https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784521 2. O. M. Ergashev., O‘rnatilgan tizimlar., Nashriyot:Farg‘ona., Darslik., Nashr yili: 2023., Sahifa soni: 274 http://unilibrary.uz/literature/599485

3. Marwedel, P. (2021). Embedded System Design: Embedded Systems Foundations of Cyber-Physical Systems, and the Internet of Things (4th ed.). Springer, Cham. ISBN: 978-3-030-60909-2 (Print), 978-3-030-60910-8 (Online) DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-030-60910-8 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784530
4. Tanaka, K. (2022). Embedded Systems: Theory and Design Methodology. InTechOpen., ISBN: 9781839691211., Nashriyot: InTechOpen, London, UK Chop etilgan yil: 2022., Sahifalar soni: 188 bet https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784545
5. К.Э.Шукуров., O‘rnatilgan tizimlar., Toshkent 2020., ТАТУ, «Компьютер тизимлари» 161 bet https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784557
6. Henkel, J., & Dutt, N. (Eds.). (2021). Dependable Embedded Systems. Springer International Publishing. ISBN: 978-3-030-64199-3 (Print), 978-3-030-64200-6 (Online)., Sahifalar soni: 608 bet DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-030-64200-6 https://library.oapen.org/viewer/web/viewer.html?file=/bitstream/handle/20.500.12657/43279/2021_Book_DependableEmbeddedSystems.pdf?sequence=1&isAllowed=y https://unilibrary.uz/my-publication/literature/784572

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Marwedel, P. (2021). Embedded System Design: Embedded Systems Foundations of Cyber-Physical Systems, and the Internet of Things (4th ed.). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-60910-8
2. Tanaka, K. (2022). Embedded Systems: Theory and Design Methodology. InTechOpen. https://www.intechopen.com/books/embedded-systems-theory-and-design-methodology
3. Henkel, J., & Dutt, N. (Eds.). (2021). Dependable Embedded Systems. Springer International Publishing. https://doi.org/10.1007/978-3-030-64200-6
4. Lee, E. A., & Seshia, S. A. (2022). Introduction to Embedded Systems: A Cyber-Physical Systems Approach (2nd ed.). MIT Press. https://ptolemy.berkeley.edu/books/leeseshia/releases/latest/
5. Wolf, W. (2021). Computers as Components: Principles of Embedded Computing System Design (4th ed.). Morgan Kaufmann. https://www.elsevier.com/books/computers-as-components/wolf/978-0-12-811897-4

7.	Ushbu sillabus O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy

CamScanner yordamida skanerlangan

	hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy fan sillabusi asosida va 60610500 - Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2025-yil 25-1 iyun dagi 11-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** Sh.I.Xaydarov – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi, o'qituvchi
9.	**Taqrizchilar:** G'.K.Qodirov– TerDU, Amaliy matematika va axborot texnologiyalari mudiri t.f.d. R.Ya.Mamajanov – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedarsi mudiri t.f.n dots

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzl TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	TOP-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	TOP-300 (QS/THE) dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	Leiden University (Netherlands) Sogdian traders	1[illegible]/73	https://studiegids.universiteitleiden.nl/courses/131604/embedded-systems-and-software
2	University of Maryland (USA) – ENPM 615 – Embedded Systems (2024)	68/50	https://mage.umd.edu/sites/oaee.umd.edu/files/syllabi/ENPM615%202408%20Syllabus%20-%20Tentative.pdf
3	UPenn – University of Pennsylvania (USA) – ESE 3500 – Embedded Systems & Microcontroller Laboratory	319	https://courses.uww.edu/2227/Undergraduate/COMPSCI/412

CamScanner yordamida skanerlangan

	sxemalar 1" fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma. –Toshkent: TATU. 2020. - 128 b. 6. Д.А. Арзиев, Т.У. Нурмухамедова, Ш.К. Холмонов, В.А. Газиева, Х.Н.Тешабоев, А.Х. Абдуллаев. Методическое пособие к выполнению лабораторных работ по курсу "Электроника и схемы I". ТУИТ, 2021 **Axborot manbalari** 1. www.gov.uz. 2. www.tuit.uz. 3. www.ziyoNET.uz. 4. www.edu.uz. 5. http://etuit.uz/dl/course/category.php?id=41
7.	**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** X.A. Sattarov – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Elektronika va radiotexnika" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, professor. A. Yusupov – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Elektronika va radiotexnika" kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori, professor. A.X. Abdullayev – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Elektronika va radiotexnika" kafedrasi assistenti. X.N. Teshaboyev – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Elektronika va radiotexnika" kafedrasi assistenti.
9.	**Taqrizchilar:** H.X.Madaminov – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, "Mobil aloqa texnologiyalari" kafedrasi mudiri, vv bo'yicha falsafa doktori, dotsent V.N.Yaronova - Toshkent davlat transport universiteti "Radioelektron qurilmalar va tizimlar" kafedrasi mudiri, texnika fanlari nomzodi, dotsent

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
B.Maxkamov
2022 yil "25" 08

N 42
25.08.2022 y.

Elektronika va sxemalar 1

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300 000	-	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
	400 000	-	Biznes, boshqaruv va huquq
	600 000	-	Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari
	700 000	-	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	310 000	-	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
	320 000	-	Jurnalistika va axborot
	410 000	-	Biznes va boshqaruv
	610 000	-	Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari
	710 000	-	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	60310500	-	Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
	60320400	-	Kutubxona-axborot faoliyati (Axborot kutubxona texnologiyalari)
	60412800	-	Elektron tijorat
	60610300	-	Axborot xavfsizligi (Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va servis)
	60610500	-	Kompyuter injiniringi ("Kompyuter injiniringi", "AT-servisi", "Multimedia texnologiyalari")
	60610600	-	Dasturiy injiniring
	60610700		Sun'iy intellekt
	60611000	-	Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiyalar", "Teleradioeshittirish", "Mobil tizimlar")
	60611100	-	Televizion texnologiyalar ("Audiovizual texnologiyalar", "Telestudiya tizimlari va ilovalari")
	60611200	-	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxasida iqtisodiyot va menejment
	60611300	-	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxasida kasb ta'limi
	60611400	-	Pochta aloqasi texnologiyasi
	60612000	-	Infokommunikatsiya injiniringi
	60612100	-	Kiberxavfsizlik injiniringi
	60711500	-	Mexatronika va robototexnika

Toshkent - 2022

1. O‘quv fanini o‘qitilishi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Fan/modul kodi	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 3	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 5

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy soati
	Elektronika va sxemalar 1	74	106	180

2. I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsadi - axborot va kommunikasiya texnologiyalarida ishlatiladigan sxemalar va elektron asboblar turlarini, xarakteristikalarini, ularning tuzilishi, ishlash mexanizimlari va ular yordamida yaratiladigan murakkab qurilmalarning texnologik va sxemotexnik xususiyatlarini o’rganish masalalarini hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko’nikmalalar, axborot va kommunikasiya texnologiyalarida ishlatiladigan sxemalar va elektron asboblarni ishlatishni o’rgatish hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga qo‘yidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. “Elektronika va sxemalar 1” faniga kirish. Fanning maqsadi va vazifalari: Elektronika va sxemalar 1 fanining o‘rni va ahamiyati; Hozirgi zamon axborot-kommunikasiya texnologiyalariga elektronika sohasidagi yetuk olimlarning qo’shgan hissalari; Zamonaviy elektronika tarixi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari; Elektrotexnika va elektronika sohalaridagi standartlar va texnik talablar

2-mavzu. Elektron sxema simulyatorlari: Elektron sxema simulyatorlarining turlari, qo‘llanilishi va afzalliklari; Ma’lumotlar o’zgartiruvchi standart sxemalarni qamragan analog tizimlar dunyosi bilan kompyuterlar tizimlarining o‘zaro ta’sirlari bilan bog‘liq muammolar; Tizimlarning muvofiqlanishi, o‘zaro bog‘lanishlardagi xavfsizlikka standartlarning umumlashtiruvchi ahamiyati

3-mavzu. Elektr kattaliklar, ulani o‘lchash usullari va asboblari: Asosiy elektr kattaliklar (zaryad miqddori, elektr maydoni kuchlanganligi, potentsial, tok, kuchlanish, energiya, quvvat) va ularning o’zaro munosabatlari; Elektr zanjirlarining aktiv va passiv elementlari, ularning belgilanishi va xususiyatlari; elementlarni ketma-ket va parallel ulash; Elektr kattaliklarini o‘lchash turlari va uslublari; O‘lashlar aniqligi va xatoliklari; Magnitoelektrik, elektromagnit va elektrodinamik o‘lchash asboblari; Ko‘priksimon va kompensatsiyalash o‘lchash uslublari

4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma’ruzalar;
- intefaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- Guruhlarda ishlash;
- Taqdimotlar qilish;
- Individual loyihalar;
- Jamoa bo‘lib himoya qilishlar.

5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar

Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshirioqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

6. Asosiy adabiyotlar

1. A.A. Tulyaganov, S.S. Parsiev, V.A. Tulyaganova, U.M. Abdullayev. Elektr zanjirlar nazariyasi. (o‘quv qo‘llanma). T.: Aloqachi, 2018, 144 bet.
2. X.K.Aripov, A.M. Abdullayev, N.B. Alimova, J.T. Maxsudov, A.A.Tulyaganov, Sh.T.Toshmatov. Elektronika va sxemotexnika (darslik) Toshkent.: «Aloqachi», 2017y, 376 b.
3. Aripov X.K., Abdullaev A.M., Alimova N.B., Bustanov X.X., Toshmatov Sh.T. “Sxemotexnika” (darslik), Toshkent. «Tafakkur bo`stoni», 2013, 447 b.
4. Thomas F. Schubert, Jr., Ernest M. Kim. Fundamentals of Electronics Book 1: Electronic Devices and Circuit Applications, 2014.
5. В.Т. Еременко, А.А. Рабочий, А.П. Фисун, И.И. Невров, А.В. Тютякин, А.Е. Георгиевский. Основы электротехники и электроники. Учебник. Орел, 2012

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. X.K. Aripov, A.M. Abdullayev, N.B. Alimova, X.X. Bustanov, Sh.T. Toshmatov. Raqamli mantiqiy qurilmalarni loyihalashtirish (darslik). Toshkent.: «Aloqachi», 2017y, 396 b.
2. Thomas L. Floyd, David L. Buchla. Electronics Fundamentals Circuits, Devices and Applications Eighth Edition, 2014
3. John Bird. Electrical Circuit Theory and Technology, Fifth edition, Simultaneously published in the USA and Canada, 2014
4. В.А. Матвеенко. Основы теории цепей : учебное пособие. Екатеринбург, 2016
5. X.K. Aripov, A.M. Abdullayev, T.U. Nurmuxamedova, Sh.Q. Xolmonov, X.N.Teshaboyev, A.X. Abdullayev. “Elektronika va

	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. 2-3 - ma'ruzalar hamda, 1 - laboratoriya mashg'uloti mavzulari asosida "Elektron sxema simulyatorlari. Elektr kattaliklar va ularni tadqiq etish". O'rganish natijalari hisobot shakilda topshiriladi. 2. 4-5 - ma'ruzalar hamda, 3 – laboratoriya mashg'uloti mavzulari asosida. Elektr zanjirlarning asosiy elementlari. Elektr sxemalarni Kirxgof qonunlari asosida hisoblash va tahlil qilish. Hisoblash natijalari hisobot shakilda topshiriladi. 3. 6-7 - ma'ruzalar hamda, 4 – laboratoriya mashg'uloti mavzulari asosida. Elektr zanjirlarni hisoblash usullari. Elektr zanjirlarga sinusoidal signal ta'siridagi xususiyatlarini hisoblash. Hisoblash natijalari hisobot shakilda topshiriladi. 4. 10-11 - ma'ruzalar hamda, 8-9 – laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari asosida. Yarim o'tkazgichlarni elektrofizik xususiyatlari va ularni tadqiq etish. Hisoblash natijalari hisobot shakilda topshiriladi. 5. 13 - ma'ruza hamda, 11-12 – laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari asosida. Bipolyar tranzistorlar. Ko'p qatlamli yarim o'tkazgich asboblar. Ma'lumotlar taqdimot shakilda topshiriladi. 6. 15 - ma'ruza hamda, 13-14 – laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari asosida. Maydoniy tranzistorlar (MT). Integral mikrosxemalar. Ma'lumotlar taqdimot shakilda topshiriladi. 7. 18 - ma'ruza hamda, 15 - laboratoriya mashg'uloti mavzulari asosida. Operasion kuchaytirgichlar va ular asosidagi analog signallar o'zgartirgichlari. Ma'lumotlar taqdimot shakilda topshiriladi.
3.	**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari** **"Elektronika va sxemalar 1" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalar:** • Passiv elementlarda elektr toki va kuchlanishi orasidagi munosabatlarni aniqlashni, turli xil generatorlar va o'lchov asboblarini ishlata bilish haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** • Elektr zanjiridagi passiv va aktiv elementlardagi tok va kuchlanishlarni hisoblashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** • Birinchi va ikkinchi tartibli sxemalarni va matematik atamalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish, tizim holatini vaqtinchalik va barqaror holatda simulyasiya qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

	4-mavzu. O'zgarmas tok elektr zanjirlari va ularning tahlili: Elektr zanjirlari sxemalari asosiy tushinchalari: tugun, tarmoq va kontur tushunchalari; Printsipial sxemalar, o'rinalmashtirish (zameshenie) sxemalari; Elektr sxemaalarining asosiy ulanishlari, tarmoqlanmagan va tarmoqlangan elektr zanzirlari; Elektr zanjirlarini ekvivalent o'zgartirishlar uslubida taxlil qilish; Elektr zanjirlari asosi qonunlari: Om va Kirxgof qonunlari, Joul-Lents qonuni; Om qonuni asosida elektr sxemalar tahlili **5-mavzu. O'zgarmas tok elektr zanjirlarini hisoblash:** Kirxgof qonunlarini qo'llab elektr zanjirlarini hisoblash; Elektr zanjirlarini hisoblashning kontur toklar uslubi; Elektr zanjirlarini hisoblashning ustma-ust tushirish uslubi; Tugunlar potentsiali uslubi; Ekvivalent generator uslubi; Rezistor, induktiv g'altak va kondensatorlarning turli kombinasiyalaridan tuzilgan sxemalarning xususiyatlari **6-mavzu. Sinusoidal tok, uni xarakterlovchi asossiy kattaliklar:** Sinusoidal kattaliklarni tasvirlash; Elektr zanjiri elementlarida sinusoidal tok; Kompleks shakldagi Om va Kirxgof qonunlari; Parallel va ketma-ket RLC-zanjirlarida garmonik tok; Garmonik tok zahjirlarida quvvat. Elektr zanjirlarning chastota xususiyatlari; Rezistiv va reaktiv zanjirlardagi quvvatlarni taqqoslash; Elektr sxemalardagi tok kuchlanishlarni faza ko'rinishini ifodalanishi va qo'llanilishi; Impedans va to'liq elektr o'tkazuvchanlik hamda manba turlarini o'zgartirish, aniqlash va qo'llash **7-mavzu. Sinusoidal signal ta'siridagi elektr zanjirlari xususiyatlari:** Elektr zanjirlarning chastota xususiyatlari; Aktiv va reaktiv qarshiliklarning farqi; Sig'im va induktiv reaktiv qarshiliklarga chastota va fazaning ta'siri; Rezistiv va reaktiv zanjirlardagi quvvatlarni taqqoslash; Elektr sxemalardagi tok kuchlanishlarni faza ko'rinishini ifodalanishi va qo'llanilishi; Impedans va to'liq elektr o'tkazuvchanlik hamda manba turlarini o'zgartirish, aniqlash va qo'llash; R, L va C zanjirlarning AChX va FChX larini hisoblash **8-mavzu. O'zaro induktsiyali zanjirlar:** Magnit yurituvchi kuch, magnit bog'langan zanjirlar; Magnit zanjirlari uchun Kirxgof qoidalari; Magnit zanjirlarining asoosiy qonunlari; Magnit zanjirlarini hisoblash; Transformatorlar tuzilishi va ishlash printsipi; Transformatorlarning xarakteristikalari va qo'llanilishi; Uzatish xarakteristikalari, ikki qutbli sxemalar, parallel va ketma ketli rezonans, quvvatni maksimal uzatish va o'zaro induksiya; Tebranish kontirlari, ulardagi rezonans **9-mavzu. Elektr zanjiridagi o'tkinchi jarayonlar:** Kommutatsiya qonunlari; Majburiy va erkin rejimlar; Asosiy va noasosiy boshlang'ich shartlar; O'tkinchi jarayonlarni hisoblashning klassik uslubi; RC va RL zanjirlarda o'tkinchi jarayonlar. Vaqt doimiylari, o'tkinchi va stasionar ta'sirlar va demferlash (so'nish); R, L, C – zanjirlarida o'tkinchi jarayonlar. R, L va C

elementlardan tuzilgan sodda sxemalarni loyihalash

10-mavzu. Yarimo'tkazgich asboblar ishlashining fizikaviy asoslari: Yarimo'tkazgichlar, ularning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi; Qattiq jism zonalar nazariyasi elementlari; Yarimo'tkazgichlar elektr o'tkazuvchanligi; Erkin zaryad tashuvchilarning muvozanat holatdagi konsentrasiyasi. Generatsiya va rekombinatsiya jarayonlari, nomuvazanat tok tashuvchilar; Yarimo'tkazgichlardagi toklar

11-mavzu. Yarim o'tkazgichlarda kontakt hodisalari: Muvozanat holatdagi p-n o'tish zona diagrammasi; Nomuvazanat holatdagi p-n o'tish; p-n o'tishning volt-amper xarakteristikasi; p-n o'tishning teshilish turlari; p-n o'tishning elektr parametrlari; Metall-yarim o'tkazgich o'tishlar. Geteroo'tishlar

12-mavzu. Yarimo'tkazgich diodlar: To'g'rilovchi diodlar; Diodlar volt-amper xarakteristikalari va parametrlari, ularning temperaturaga bog'liqligi; Diod modeli. Ideal diodning matematik modeli; To'girlovchi diodlarning qo'llanishi; Stabilitronlar. Varikaplar. Shottki barerli diodlar; Tunnel va o'girilgan diodlar. Fotoddiodlar; Nurlanuvchi diodlar; Optronlar

13-mavzu. Bipolyar tranzistorlar: Bipolyar tranzistor (BT)lar haqida umumiy ma'lumotlar; BTlar ulanish sxemalari; n-p-n va p-n-p BTlarning tuzilishlari va ishlash printsipi; BT tuzilmalarining energetik diagrammalari. BTlarda elektrod toklari; BT elektrik modeli; BTlar statik xarakteristikalari; BTlar parametrlari; BTlarning qo'llanishi

14-mavzu. Ko'p qatlamli yarimo'tkazgich asboblar: Umumiy ma'lumotlar. Dinistor tuzilmasi va ishlash prinsipi; Tiristor tuzilmasi va ishlash prinsipi; Tiristor - tranzistorli ekvivalent sxemasi; Simistor tuzilmasi va ishlash prinsipi; Boshqariluvchi to'g'rilagichlar. Qo'llanilish sohalari.

15-mavzu. Maydoniy tranzistorlar (MT): MTlar haqida ma'lumotlar; MTlar turlari va belgilanishlari; p-n o'tish bilan boshqariladigan MTlar; kanalli induksiyalangan va kanali qurilgan MDYa-tranzistorlarning tuzilishi va ishlash printsiplari; MTlar volt-amper xarakteristikalari va parametrlari, ularning ish rejimlariga hamda temperaturaga bog'liqligi; MTlar qo'llanilish sohalari. O'YuCh MDYa tranzistor chastota va quvvat bo'yicha cheklanishlari.

16-mavzu. Integral mikrosxemalar: Umumiy ma'lumotlar; Yarimo'tkazgich IMSlar yaratishda texnologik jarayon va operasiyalar; Integral diodlar va ularni tayyorlash; BTlar asosidagi integral mikrosxemalar, ularni tayyorlash texnologiyasi; MDYa tranzistorlar asosidagi integral mikrosxemalar, ularni tayyorlash. Integral sxemalar passiv elementlari. Nanoelektronika va uning rivojlanish istiqbollari.

17-mavzu. Analog elektronika: Elektron qurilmalarning tasniflanishi; Analog qurilmalar sxemotexnikasi; Analog kuchaytirgich qurilmalarning asosiy xususiyatlari; Kuchaytirgich kaskadlarining kuchaytirish sinflari. Kuchaytirgichlarda teskari aloqa; BTlar asosidagi kuchaytirgich kaskadlari. MTlar asosidagi kuchaytirgich kaskadlari.

18-mavzu. Operatsion kuchaytirgichlar. Operatsion kuchaytirgichlar asosidagi analog signallar o'zgartirgichlari: Umumiy ma'lumotlar. Analog integral mikrosxemalarning negiz elementlari; Operasion kuchaytirgichlarning (OK) tuzilishi. OK asosiy parametrlari va xarakteristikalari; OKlarga inertsiyasiz rezistiv (chiziqli) teskari aloqali zanjirlarning ulanishi; OKlarga inertsiyali teskari aloqa zanjirlarining ulanishi. OKlarga inertsiyasiz nochiziqli zanjirlarning ulanishi.

III. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
(Laboratoriya ishlari)

1. Universal laboratoriya stendlari bilan tanishish
2. Real mustaqil kuchlanish va tok manbalarining xarakteristikalari tadqiqoti
3. Rezistiv zanjirlarda Kirxgof qonunlarini eksperimental tadqiq etish
4. RL va RC zanjirlarni o'zgaruvchan chastotalarda tadqiq etish
5. Ketma-ket tebranish konturlarini tadqiq etish
6. Parallel tebranish konturlarini tadqiq etish
7. Differensiyalovchi va integrallovchi zanjirlarni tadqiq etish
8. Yarim o'tkazgichli diod parametrlari va xarakteristikalarini tadqiq etish
9. Stabilitron xarakteristikasi va parametrlarini tadqiq etish
10. Optronni tadqiq etish
11. UE ulanish sxemasidagi BTni statik VAXlarini tadqiq etish
12. UB ulanish sxemasidagi BTni statik VAXlarini tadqiq etish
13. MT statik xarakteristikalarini tadqiq etish
14. Kanali induksiyalangan metall-dielektrik-yarimo'tkazgich (MDYa)-xarakteristikalarini tadqiq etish
15. Operasion kuchaytirgich tadqiqoti

Laboratoriya mashg'ulotlar multimedia va laboratoriya qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurulmalari yordamida uzatiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
DTPI rektori: _____ A.Ruziyev
“____” _____2025-yil

Ro‘yxatga olindi: № - 375.1.23.2025
2025-yil “26” 06.

PARALLEL KOMPYUTER ARXITEKTURASI VA DASTURLASH FANI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 – Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 – Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yunalishi:	60610500 - Kompyuter injiniringi

DENOV – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi O'SMVTTB204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	Kreditlar 8
Fan/modul turi Asosiy	Ta'lim tili: O'zbek		Haftadagi dars soatlari: 8

	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash	120	120	240

2

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – Fanni o'qitilishining maqsadi – bakalavrlarga ma'lumotlarni parallel qayta ishlash texnologiyalari, asosiy dasturlar va parallelashtirish paketlari haqida tushunchalar, xotira turlari, dasturlash modellari va parallel tizimlar arxitekturasi haqida bilim, ko'nikma va izlanishlar olib borish malakalarini shakllantirishdir. Fanning asosiy vazifalari – xozirgi zamon yangi axborot texnologiyalariga asoslangan parallel paketlaridan dastur yaratishda va parallel tizimlaridan foydalana oladigan mutaxasislarni tayyorlashdan iborat. "Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash" fanida quyidagi maqsadlar o'z ichiga oladi:

1. Parallel hisoblashning asosiy qonunlarini o`rganish.

2. Parallel yondashuvlarni tasniflashni o`rganish.

3. Profillash vositalari. Protsessorning soat tezligi va quvvat sarfini empirik o'lchashni o`rganish.

4. Ko'p o'lchovli massivlar. Massivlardan strukturaning ishlashini baholashni o`rganish.

5. Fazoviy xeshlash: yuqori parallel algoritm turlarini o`rganish.

6. Vektorlashtirish usullarini o`rganish. "Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash" fanining maqsadi, ma'lumotlarni o'rganish va ularni qo'llashda texnik va tahlili usullarni o'rganishni ta'minlashdir. Bu fan, paralel xisoblash ishlarini bajarishda unimdorlikni oshirish uchun xotiralarga murojatlar bilan

ishlashni o`rgatadi. Foydalanish sohasida o'quvchilarga yaxshi tayyorgarlik beradi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash fanini o'rganish uchun sizga matematika, kompyuter texnologiyalari, sxematexnika va dasturlash bo'yicha asosiy ma'lumot kerak bo'ladi. Bu erda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan dastlabki bilimlar ro'yxati:

- ✓ Matematika:
- ✓ Chiziqli algebra:
- ✓ matritsalar, vektorlar, ular bilan amallarni tushunish. Differensial va integral hisob:
- ✓ funksiyalarni differentsiallash va integrallash asoslari.
- ✓ Ehtimollar nazariyasi va statistikasi:
- ✓ o'rtacha, dispersiya, standart og'ish, ehtimollik taqsimoti kabi asosiy tushunchalar.
- ✓ Dasturlash:
- ✓ Python yoki R kabi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan tillarda dasturlash tajribasi.
- ✓ Asosiy ma'lumotlar tuzilmalari, shartli bayonotlar, tsikllar va funktsiyalarni bilish. Kompyuter texnologiyalari:
- ✓ Kompyuter qurulmari.
- ✓ Xotiralar va ularning turlari.
- ✓ Ona platalarning turlari.
- ✓ Super kompyuterlar arxitekturas.
- ✓ Ichki va tashqi qurulmalari va vazifalari
- ✓ Mashinani o'rganishning asosiy algoritmlari va ma'lumotlarni tahlil qilish usullari, masalan, regressiya, qarorlar daraxtlari, klasterlash, neyron tarmoqlar va boshqalarni bilish.

Ushbu sohalardagi bilim sizga Ma'lumotlar intellektual tahlili

CamScanner yordamida skanerlangan

o‘rganish uchun yaxshi boshlanish nuqtasini beradi. Siz o‘qiyotgan kurs yoki dastur darajasiga qarab, tayyorgarlik darajasi har xil bo‘lishi mumkin, ammo yuqoridagi ko‘nikmalar odatda bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun talab qilinadi.

Ta’lim natijalari (TN)

“Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash” ta’lim natijalari o‘quvchilarning o‘z o‘qitish muvaffaqiyatlari va amalga oshirishlari natijasida olib boriladigan ko‘nikmalar va malakalarni anglatadi. Bu soha o‘quvchilarga ma’lumotlar bilan ishlash, parallel hisoblash usullari, axborotlarga ishlov berish, axborotlarga parallel ishlov berish vositalari dasturiy vositalari orqali qaror qabul qilishda ko‘mak beradi. Quyidagi ta’lim natijalari o‘qituvchilar va o‘quvchilarga ko‘mak beradi:

1. Parallel hisoblash usullari: O‘quvchilar ma’lumotlarni statistik va kompyuterlarning yordamida parallel hisoblashni o‘rganishadi. Ular statistik va tahlilning asosiy qoidalari va ko‘nikmalarini o‘rganadilar.

2. Parallelashtirish: O‘quvchilar ishlov berish tezligini oshirishning bir yo‘li parallelashtirishni o‘rganishadi.

3. Xotirani tashkillashtirish, arxiya sathi va xotira turlarining asosiy xususiyatlari: O‘quvchilar xotiraga murojatlarni va ularning turlarini o‘rganishadi.

4. Dasturiy taqdimot sathi, mashina kodi, mnemakod va dasturlash tillari.: Dasturning unumdor ishlashi uchun qo‘yiladigan shartlar va yuqori unumdorlik.

5. Unumdorlikni oshirish: konveyr va superskalyar qayta ishlash: O‘quvchilar ma’lumotlar tahlili va ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish usullarini o‘rganishadi.

6. VLIW-arxitekturasi: Ular parallel kompyuterlar: umumiy va ajratilgan xotirali multiprotsessorlar va multikompyuterlarning ishlatishni o‘rganadilar.

7. Texnik va tahlili amaliyot: O‘quvchilar xotiraga bir xil bo‘lmagan ruxsatlilik texnologiyasi, NUMA va ccNUMA arxitekturasi, kesh mustahkamligining ishlashni o‘rganishadi.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun " Parallel kompyuter arxitekturasi va dasturlash "ta’lim natijalari, bir necha sohalarda amaliyotni oshirish, ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish, ma’lumotlar parallelqayta ishlash, unumdorlikni oshirish orqali qaror qabul qilish va ma’lumotlar analitikasi vositalarini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Bu bilimlar va ko‘nikmalar, biznes, siyosat, ma’lumotlar fanlari va boshqa sohalarda hisoblashlarni tez amalga oshirishda va natijalarga olish uchun foydali bo‘ladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagilar kiradi:

PARALLEL KOMPYUTER ARXITEKTURASI VA DASTURLASH

1-mavzu. Kirish. Parallel hisoblashga kirish

Ushbu mavzuda parallel hisoblashning asosiy tushunchalari, tarixiy rivojlanishi va hozirgi zamon texnologiyalaridagi o‘rni yoritiladi. Ketma-ket va parallel hisoblash o‘rtasidagi farqlar, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslanadi. Paralellashgan tizimlarning afzalliklari va qo‘llanilish sohalari (ilmiy hisoblash, sun’iy intellekt, muhandislik hisoblari) haqida tushunchalar beriladi.

2-mavzu. Parallellashtirishni rejalashtirish.

Mavzuda hisoblash jarayonlarini parallellashtirish uchun vazifalarni bo‘lish va resurslarni taqsimlash strategiyalari o‘rganiladi. Statik va dinamik rejalashtirish, yuklamani balanslash, va samaradorlikni oshirish usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, vazifa grafigi (task graph) va uning tahlili tushuntiriladi.

3-mavzu. Ishlash chegaralari va profillash

Bu mavzuda Amdahl qonuni va Gustafson qonuni yordamida parallel tizim samaradorligi baholanadi. Profil olish vositalari orqali dastur ishlashidagi muammolar aniqlanadi. Ishlash chegaralarini tahlil qilish orqali optimallashtirish

CamScanner yordamida skanerlangan

yo'llari ishlab chiqiladi.

4-mavzu. Ma'lumotlar dizayni va ishlash modellari

Ma'lumotlarni joylashtirish va uzatish arxitekturasi, xotira iyerarxiyasi, kechikishlarni kamaytirish strategiyalari o'rganiladi. Parallel hisoblashda ishlatiladigan ma'lumot modellarining (shared memory, distributed memory) farqlari tahlil qilinadi.

5-mavzu. Parallel algoritmlar va shablonlar

Parallel dasturlashda keng qo'llaniladigan algoritmik shablonlar - MapReduce, Pipeline, Master-Worker, Fork-Join - chuqur o'rganiladi. Har bir shablonning afzallik va kamchiliklari, real amaliyotdagi qo'llanilishi misollar bilan tushuntiriladi.

6-mavzu. Vektorlashtirish

Ma'lumotlarni bir nechta elementni bir vaqtning o'zida qayta ishlashga imkon beruvchi SIMD (Single Instruction Multiple Data) texnologiyasi o'rganiladi. Zamonaviy protsessorlarda vektor registrlari va ularning ishlashi, vektorlashtirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

7-mavzu. OpenMP standarti

Ko'p yadroli tizimlarda parallellashtirish uchun OpenMP platformasining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Direktivalar, parallel for sikllari, sinxronizatsiya vositalari va dastur kodiga integratsiya qilish bo'yicha amaliy misollar beriladi.

8-mavzu. MPI

Taqsimlangan xotira modelida ishlaydigan tizimlar uchun MPI (Message Passing Interface) imkoniyatlari tushuntiriladi. Nuqta-nuqta va kollektiv operatsiyalar, jarayonlarni sinxronizatsiya qilish usullari va amaliy dasturlash misollari keltiriladi.

9-mavzu. GPU arxitekturasi va konsepsiyalari

Grafik protsessorlarning arxitekturasi, CPU bilan farqli jihatlari, blok va iplarning (threads) ishlash prinsipi yoritiladi. GPU'ning massiv parallel hisoblash

imkoniyatlari va resurs cheklovlari tahlil qilinadi.

10-mavzu. GPU dasturlash modeli

GPU dasturlashdagi bloklar, iplar va tarmoqlar (grid) tushunchalari tushuntiriladi. CUDA va OpenCL platformalari bilan tanishtiriladi, ular orqali oddiy parallel vazifalarni yaratish misollari ko'rib chiqiladi.

11-mavzu. Direktivaga asoslangan GPU dasturlash

GPU dasturlashni soddalashtirish uchun OpenACC kabi direktivalarga asoslangan texnologiyalar o'rganiladi. Mavzuda amaliy kod namunalari va ularning optimallashtirish imkoniyatlari yoritiladi.

12-mavzu. GPU tillari: asoslarga murojaat qilish

GPU dasturlash uchun maxsus tillar (CUDA C/C++, HIP, SYCL) va kutubxonalar o'rganiladi. Ularning sintaksisi, afzalliklari va qo'llanilish sohalari taqqoslanadi.

13-mavzu. GPU profillari va vositalari

NVIDIA Nsight, nvprof kabi vositalar yordamida GPU ishlash samaradorligini o'lchash va optimallashtirish usullari ko'rib chiqiladi. Profil natijalariga qarab kodni takomillashtirish strategiyalari tushuntiriladi.

14-mavzu. Yaqinlik: hisoblash yadrosi bilan sulh

NUMA (Non-Uniform Memory Access) arxitekturasi va uning ishlash samaradorligiga ta'siri tushuntiriladi. Jarayonlarni optimal joylashtirish orqali ishlashni tezlashtirish usullari tahlil qilinadi.

15-mavzu. Parallel dunyo uchun fayl operatsiyalari

Katta hajmli ma'lumotlarni parallel o'qish va yozish texnologiyalari o'rganiladi. Lustre, GPFS kabi parallel fayl tizimlari misolida amaliy qo'llanishlar yoritiladi.

16-mavzu. Parallel ma'lumotlar bazalari va ishlash tamoyillari

Parallel va taqsimlangan ma'lumotlar bazalarining ishlash mexanizmlari, indekslash va qidirish jarayonlarida parallellashtirish usullari o'rganiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

17-mavzu. Bulutli muhitda parallel hisoblash

AWS, Azure, Google Cloud kabi platformalarda parallel hisoblash imkoniyatlari va servis modellari (IaaS, PaaS, SaaS) tushuntiriladi. Bulutda elastik resurslardan foydalanish strategiyalari ko'rib chiqiladi.

18-mavzu. Katta hajmli ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlashda parallellashtirish

Hadoop, Spark kabi texnologiyalar yordamida massiv ma'lumotlarni parallellashtirish usullari o'rganiladi. Streaming va batch qayta ishlash yondashuvlari tushuntiriladi.

19-mavzu. Taqsimlangan tizimlarda xavfsizlik va sinxronizatsiya

Taqsimlangan va parallel tizimlarda xavfsizlik choralari, ma'lumotlarni himoyalash va shifrlash texnologiyalari tahlil qilinadi. Sinxronizatsiya mexanizmlari (lock, semaphore) tushuntiriladi.

20-mavzu. Parallel hisoblashda xatoliklarni aniqlash va bartaraf etish

Parallel tizimlarda yuzaga keladigan xatoliklar (deadlock, race condition) va ularni oldini olish strategiyalari o'rganiladi. Diagnostika vositalari va testlash metodlari yoritiladi.

21-mavzu. SIMD va MIMD arxitekturalari

SIMD va MIMD ishlash prinsiplari, afzalliklari va qo'llanish sohalari taqqoslanadi. Real protsessor arxitekturalari misolida ularning ishlashi tahlil qilinadi.

22-mavzu. Heterogen hisoblash tizimlari

CPU, GPU va FPGA kabi turli akseleratorlarni birgalikda ishlatish texnologiyalari o'rganiladi. Resurslarni samarali taqsimlash strategiyalari yoritiladi.

23-mavzu. Parallel dasturlashda optimallashtirish usullari

Kod samaradorligini oshirish, xotira kirishlarini optimallashtirish va kechikishlarni kamaytirish texnikalari ko'rib chiqiladi.

24-mavzu. Energiya samaradorligi va resurslarni boshqarish

Energiya iste'molini kamaytirish usullari, dinamik kuch boshqaruvi va server resurslarini optimallashtirish strategiyalari o'rganiladi.

25-mavzu. Superkompyuterlar va ishlash prinsiplari

Zamonaviy superkompyuterlarning tuzilishi, ishlash prinsiplari va dunyodagi eng kuchli superkompyuterlar reytingi (TOP500) tahlil qilinadi.

26-mavzu. Real vaqt tizimlarida parallellashtirish

Real vaqt talab qiluvchi ilovalar uchun parallel hisoblash yondashuvlari, vaqt kechikishlarini boshqarish va deterministik ishlash usullari o'rganiladi.

27-mavzu. Ilmiy hisoblashlarda GPU va CPU kombinatsiyasi

CPU va GPU ni birgalikda ishlatish orqali katta hajmli ilmiy hisoblashlarni tezlashtirish usullari tahlil qilinadi.

28-mavzu. Parallel hisoblashda sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish

AI va ML modellarini tezlashtirishda parallel hisoblash texnologiyalarining roli, GPU va TPU kabi maxsus qurilmalar bilan ishlash yoritiladi.

29-mavzu. Parallel tizimlarni testlash va benchmarking

Parallel tizimlarning ishlash samaradorligini baholash mezonlari va test vositalari (Linpack, STREAM) tushuntiriladi.

30-mavzu. Parallel hisoblash kelajagi va rivojlanish tendensiyalari

Parallel hisoblash sohasida yangi texnologiyalar, istiqbolli yo'nalishlar va kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Parallel hisoblashning asosiy qonunlari
2. Parallel yondashuvlarni tasniflash
3. Profillash vositalari. Protsessorning soat tezligi va quvvat sarfini empirik o'lchash
4. Ko'p o'lchovli massivlar. Massivlardan strukturaning ishlashini baholash (SoA)

CamScanner yordamida skanerlangan

5.Fazoviy xeshlash: yuqori parallel algoritm

6.Vektorlashtirish usullari

7.Standart OpenMP tsikl darajasiga misollar

8.Kollektiv ma'lumotlar almashinuvi: kuchli MPI komponenti

9.GPU xotira maydonlarining xususiyatlari

10.GPU dasturlash modeli uchun kod tuzilishi

11.OpenMP

12.CUDA va OpenCL tillari

13.OpenACC hisoblash ko'rsatmalarini qo'shish

14.MPI va OpenMP uchun yaqinlik

15.Standart fayl operatsiyalari

16.Matritsa ko'paytirishni parallellashtirish

17.Parallel saralash algoritmlari

18.GPUda tasvirlarni qayta ishlash

19.Parallel graflar algoritmlari

20.Vaqt bo'yicha parallellashtirish

21.Parallel statistik hisoblash

22.GPUda fizik simulyatsiya

23.GPUda massivlarni saralash

24.OpenMPda matritsa transpozitsiyasi

25.Parallel fayl tizimida ishlash

26.Katta hajmli ma'lumotlarni MapReduce orqali qayta ishlash

27.GPUda neyron tarmoq qatlamini bajarish

28.MPIda dinamik jarayon boshqaruvi

29.Parallel ishlarni benchmarking qilish

30.Parallel hisoblash loyihasi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Parallel hisoblash tarixi va rivojlanish bosqichlari
2. Parallel kompyuter arxitekturalarining turlari
3. Flynn tasnifi bo'yicha parallel tizimlar
4. Amdahl qonunining amaliy qo'llanilishi
5. Gustafson-Barsis qonuni va katta tizimlar samaradorligi
6. Ma'lumotlarni parallellashtirish strategiyalari
7. Vazifalarni parallellashtirish usullari
8. Quvur (pipeline) yondashuvi va qo'llanilishi
9. Cache xotira va keshlash strategiyalarining ishlashga ta'siri
10. Profil olish vositalarini tahlil qilish (Intel VTune, gprof, perf)
11. SIMD va MIMD arxitekturalarining farqlari
12. Vektor protsessorlar va ularning qo'llanilishi
13. OpenMP direktivalarining turlari
14. MPI kollektiv funksiyalari va qo'llanilish holatlari
15. GPU xotira ierarxiyasi: global, shared, constant va local xotira
16. CUDA dasturlashda blok va iplar ierarxiyasi
17. OpenCL arxitekturasi va ish prinsipi
18. OpenACC texnologiyasining afzalliklari va cheklovlari
19. Parallel algoritmlar: saralash, qidirish, matritsa amallari
20. Parallel graf algoritmlari (BFS, DFS)
21. Parallel fayl tizimlari va MPI-IO
22. NUMA arxitekturasi va yaqinlik (affinity) tushunchasi
23. GPU'da massivlarni saralash algoritmlari
24. HPC klasterlarini boshqarish tizimlari (Slurm, PBS)
25. Superkompyuterlar reytingi va TOP500 ro'yxati tahlili
26. Energiya samarador parallel hisoblash
27. Katta ma'lumotlarni qayta ishlashda Spark va Hadoop imkoniyatlari

CamScanner yordamida skanerlangan

	28.Parallel hisoblashda xavfsizlik masalalari 29.Bulutli hisoblash va parallellik 30.Kelajak texnologiyalari: Exascale computing konsepsiyasi
3	**V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:** Fanni o'zlashtirish jarayonida talaba parallel hisoblashning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy texnologiyalarini chuqur o'zlashtiradi. Talaba parallel kompyuter arxitekturalari, Flynn tasnifi, Amdahl va Gustafson qonunlari hamda ma'lumotlar va vazifalarni parallellashtirish strategiyalarini biladi va amaliyotda qo'llay oladi. Ko'p yadroli protsessorlar, GPU arxitekturasi va ularning ishlash prinsiplari bo'yicha tushunchaga ega bo'ladi, profiling vositalaridan foydalana oladi. Shuningdek, OpenMP, MPI, CUDA, OpenCL, OpenACC kabi parallel dasturlash texnologiyalarida dastur tuzish, parallel algoritmlar yaratish va optimallashtirish ko'nikmalarini egallaydi. Vektorlashtirish, GPU xotira ierarxiyasidan samarali foydalanish, parallel fayl tizimlari bilan ishlash va NUMA arxitekturasida yaqinlik optimallashtirish usullarini amaliyotda qo'llay oladi. Talaba HPC klasterlarida ishlarni rejalashtirish va boshqarish, parallel tizim samaradorligini baholash, energiya samarador parallel hisoblash usullarini qo'llash hamda katta hajmli ma'lumotlarni parallel qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'ladi. Parallel hisoblashda xavfsizlik masalalari, bulutli muhitda parallellikni tashkil qilish va zamonaviy hamda istiqbolli texnologiyalarni tushunish orqali ushbu sohada mustaqil va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi. ***Ko'nikmalar jihatidan:*** • Parallel hisoblash muhitida mustaqil va jamoaviy ishlarni tashkil eta oladi. • Parallel dasturlash tillari va kutubxonalarida dasturlar yozish, sinovdan

	o'tkazish va optimallashtirishni amalga oshiradi. • Profil va benchmarking vositalari yordamida dastur samaradorligini o'lchash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. • Parallel algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmalarini loyihalash va amaliy qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. • HPC tizimlarida resurslarni boshqarish va ishlarni rejalashtirishda ishtirok etadi. • Parallel hisoblash muhitida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, tahlil qilish va yechimini taklif eta oladi.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish; ma'ruza va amaliy mashg'ulorlarda muntazam qatnashish; tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish; o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; munozaralar va o'quv konferensiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; joriy va oraliq nazorat vazifa va topshiriqlarini bajarish; mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; yakuniy nazorat topshirish.

CamScanner yordamida skanerlangan

6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Victor Eijkhout, Parallel Programming in MPI and OpenMP. Darslik / O'quv qo'llanma. 2024 yil, MPI (Message Passing Interface) va OpenMP (Open Multi-Processing) texnologiyalaridan foydalangan holda parallel dasturlash bo'yicha. Nazariy va amaliy misollar bilan boyitilgan. Ingliz tili, Bepul, ochiq, 673 bet https://unilibrary.uz/my-publication/literature/781855 2. Paul E. McKenney, Is Parallel Programming Hard. Darslik / O'quv qo'llanma. 2023 yil, Bepul, ochiq (arXiv), Ingliz tili, Bepul, ochiq, 673 bet https://unilibrary.uz/my-publication/literature/781838 3. Culler, D. E., Singh, J. P., Gupta, A. Parallel Computer Architecture: A Hardware/Software Approach. - Morgan Kaufmann, 2021. - 1056 b. - ISBN 978-1-55860-343-1. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/781813 4. Hwang, K. Computer Architecture: Parallelism and Scalability. — McGraw-Hill, 2023. — 856 b. — ISBN 978-0-07-031621-6. https://unilibrary.uz/update/literature/781794 5. Matloff, N. Programming on Parallel Machines. — University of California, Davis, 2025 (so'nggi versiyasi). — OpenMP, MPI va CUDA texnologiyalari asosida amaliy parallel dasturlash bo'yicha. — Ingliz tili. — Bepul, ochiq. — URL: (https://heather.cs.ucdavis.edu/~matloff/158/PLN/ParProcBook.pdf) https://unilibrary.uz/my-publication/literature/781914 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. J. L. Träff, *Lectures on Parallel Computing*, arXiv preprint, July 2024. [Online]. Available: https://arxiv.org/abs/2407.18795 2. H. Shafiq, M. A. Qureshi, S. U. Khan, "Parallel Programming Models and Their Performance Evaluation," *IEEE Access*, vol. 8, pp. 225–238, 2020. [Online]. Available: https://doi.org/10.1109/ACCESS.2020.2963937

3. P. Balaprakash et al., "DeepHyper: Asynchronous Hyperparameter Search for Deep Neural Networks," *IEEE Transactions on Parallel and Distributed Systems*, vol. 33, no. 3, pp. 514–526, 2022. [Online]. Available: https://doi.org/10.1109/TPDS.2021.3082810

4. N. Natarajan, "Introduction to Parallel Computing," *arXiv preprint*, Dec. 2021. [Online]. Available: https://arxiv.org/abs/2112.15356

5. L. Dalcin, Y.-L. L. Fang, "MPI for Python: Performance Improvements and MPI-4 Features," *Parallel Computing*, vol. 111, 102920, 2022. [Online]. Available: https://doi.org/10.1016/j.parco.2022.102920

6. M. Harris, "CUDA Refresher: The Essentials," *NVIDIA Technical Blog*, July 2020. [Online]. Available: https://developer.nvidia.com/blog/cuda-refresher-the-essentials

7. S. Chandrasekaran, J. Meredith, "OpenMP Application Programming Interface Version 5.2," *OpenMP Architecture Review Board*, Nov. 2021. [Online]. Available: https://www.openmp.org/specifications

8. Ryan Kastner, Jason Cong, Zhiru Zhang. *Parallel Programming for FPGAs.* Morgan & Claypool Publishers, 2018. URL: https://arxiv.org/abs/1805.03648

9. Jayshree Ghorpade, et al. *GPGPU Processing in CUDA Architecture.* International Journal of Computer Science and Network (IJCSN), 2012. URL: https://arxiv.org/abs/1202.4347

10. Claude Tadonki. *Basic Parallel and Distributed Computing Curriculum.* arXiv preprint, 2018. URL: https://arxiv.org/abs/1802.04211

11. Tal Ben-Nun, Torsten Hoefler. *Demystifying Parallel and Distributed Deep Learning: An In-Depth Concurrency Analysis.* ACM Computing Surveys, 2020.

7.	Ushbu sillabus O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy,

CamScanner yordamida skanerlangan

	hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘ining 2-ilovasida berilgan namunaviy fan sillabusi asosida va 60610500 - Kompyuter injiniringi ta’lim yo‘nalishining malaka talablari hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2025-yil 25- 06 dagi 11 -sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida ishlab chiqildi.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** Sh.I.Xaydarov – DTPI, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi, o‘qituvchi
9.	**Taqrizchilar:** G‘.K.Qodirov– TedDU. Amaliy matematika va axborot texnologiyalari mudiri t.f.d. R.Ya.Mamajanov – DTPI, “Axborot texnologiyalari” kafedarsi mudiri dots

Mazkur o‘quv dasturi dunyoning e’tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	TOP-300 Xorijiy oliy ta’lim tashkiloti nomi	TOP-300 (QS/THE) dagi o‘rni	Sayt manzili, linki
1	Leiden University **(Netherlands)** Sogdian traders	**119/73**	https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/courses/79009/parallel-programming-i
2	Harvard University **(USA)** Entrepreneurship and Global Capitalism	**5/3**	https://harvard-iacs.github.io/2022-CS205/pages/syllabus.html
3	Princeton University. **(USA)** The History of Entrepreneurship	**25/4**	https://www.cs.princeton.edu/courses/archive/spr07/cos598A/
4	University of Texas at Austin **(USA)** International Trade	**68/50**	https://www.cs.utexas.edu/~rossbach/cs380p/

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti rektori
_____ O.A.Ruziyev
2025-yil “___” _____

Ro‘yxatga olindi
№ 3531.21.2025
2025 yil “26” 06

Signal va tasvirlarni qayta ishlash

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	610 000 –	Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi SIMP16MBK	O'quv yili 2025-2026	Semestr V	Kreditlar 6
Fan/Modul turi Asosiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari V-semestr 6 soat

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Signal va tasvirlarni qayta ishlash	60/30=90	90	180

2. I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad - Talabalarni raqamli signal va tasvirlarni tahlil qilish, filtrlash, siqish, tiklash hamda sifatini oshirish bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan ta'minlashdir. Signal va tasvirlarni qayta ishlash bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ularni real hayotdagi masalalarni yechishda qo'llay olish darajasiga yetkazish.

Fanning vazifasi - talabalarga raqamli signal va tasvirlarni qayta ishlashning nazariy asoslari, matematik modellari va algoritmlarini o'rgatish, ularni amaliy dasturiy vositalar yordamida qayta ishlash bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Shuningdek, talabalarda telekommunikatsiya, multimedia, tibbiyot va boshqa sohalardagi amaliy masalalarni yechishda zamonaviy qayta ishlash texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.I. Fanni tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Signal va tasvirlarni qayta ishlashga kirish

Signal va tasvir tushunchalari. Signal va tasvirlarni qayta ishlashning asosiy bosqichlari. Qo'llanilish sohalari (telekommunikatsiya, tibbiyot, multimedia). Analog va raqamli ishlov berish farqlari.

2-mavzu: Analog va raqamli signallar farqi

Analog signal ta'rifi va xususiyatlari. Raqamli signal ta'rifi va xususiyatlari. Afzallik va kamchiliklar. Analog-raqamli konvertatsiya jarayoni.

3-mavzu: Signal namunalash va kvantlash asoslari

Namunalash tushunchasi va Nyquist chastotasi. Diskretlash jarayoni. Kvantlash va uning xatoliklari. Namunalash va kvantlashning amaliy misollari.

4-mavzu: Diskret vaqtli signallar va tizimlar

Diskret vaqtli signal ta'rifi. Signal turlari (periodik, no-periodik, deterministik, stoxastik). Diskret tizimlarning asosiy xususiyatlari. Tizimlarning kirish–chiqish munosabatlari.

5-mavzu: Konvolyutsiya va korrelyatsiya tushunchalari

Konvolyutsiya ta'rifi va amaliy ahamiyati. Korrelyatsiya ta'rifi va qo'llanilishi. Farqlari va o'xshashliklari.Amaliy misollar.

6-mavzu: Z-transformatsiya asoslari

Z-o'zgartirish ta'rifi. Mintaqalar (ROC) tushunchasi. Z-o'zgartirish xossalari. Teskari Z-o'zgartirish.

7-mavzu: Diskret Fourier transformatsiyasi (DFT)

DFT ta'rifi. DFT formulasi va xossalari. Amaliy qo'llanish sohalari. Cheklovlari.

8-mavzu: Tez Fourier transformatsiyasi (FFT)

FFT g'oyasi va afzalligi. Algoritmik ishlash prinsipi. Amaliy qo'llanishi. DFT bilan solishtirish.

9-mavzu: Signal spektrini tahlil qilish

Signal spektri tushunchasi. Chastota domenida tahlil. Spektrogramma. Amaliy misollar.

10-mavzu: Past va yuqori chastotali filtrlash (Low-pass va High-pass filters)

Past chastotali filtrlar (Low-pass). Yuqori chastotali filtrlar (High-pass). Qo'llanilish sohasi. Analog va raqamli variantlar.

11-mavzu: FIR va IIR filtrlash usullari

FIR filtr tushunchasi va xususiyatlari. IIR filtr tushunchasi va xususiyatlari. Afzallik va kamchiliklar. Dizayn usullari.

12-mavzu: Signalni siqish va kodlash asoslari

Siqish maqsadi va turlari (yo'qotishli, yo'qotishsiz). Kodlash usullari. Amaliy formatlar (MP3, WAV, FLAC). Qo'llanilishi.

13-mavzu: Audio signalni qayta ishlash (Noise Reduction va Filtering)

Audio signal xususiyatlari. Shovqinni kamaytirish (Noise Reduction). Filtrlash. Amaliy dasturiy vositalar.

14-mavzu: Sensorli signallarni qayta ishlash (harorat, bosim, ... n.k.)

Sensorli signal turlari. Harorat va bosim signallari. Filtrlash va tahlil. Amaliy misollar.

15-mavzu: Tibbiy signallarni qayta ishlash: EKG va EEG signallari

EKG signal xususiyatlari. EEG signal xususiyatlari.Filtrlash va diagnostika. Qo'llanish sohasi.

16-mavzu: Raqamli tasvir tushunchasi: Pixel, resolution

Pixel tushunchasi. Tasvir o'lchami va resolution. Rang chuqurligi. Amaliy ahamiyat.

17-mavzu: Tasvirni namunalash va kvantlash

Fazoviy diskretlash. Rang kvantlash. Diskretlash artefaktlari. Misollar.

18-mavzu: Rang fazolari: RGB va HSV

RGB modelining asoslari. HSV modelining asoslari. Rang konvertatsiyasi. Amaliy qo'llanishi.

19-mavzu: Tasvir kontrasti va yorqinligini boshqarish

Kontrast tushunchasi. Yorqinlikni sozlash usullari. Ranglarni balanslash. Dasturiy realizatsiya.

20-mavzu: Histogram tekislash va tahlili

Histogram tushunchasi. Histogram tekislash (equalization). Amaliy misollar.

CamScanner yordamida skanerlangan

Cheklovlari.

21-mavzu: Smoothing va sharpening filtrlari (Gaussian, Laplacian)
Smoothing (Gaussian) filtrlari. Sharpening (Laplacian) filtrlari. Qo'llanish sohasi. Amaliy misollar.

22-mavzu: Edge detection: Sobel va Canny usullari
Chegara aniqlash tushunchasi. Sobel operatori. Canny operatori. Natijalarni tahlil qilish.

23-mavzu: Tasvirni segmentatsiya: Thresholding va Region Growing
Segmentatsiya tushunchasi. Thresholding usuli. Region Growing usuli. Qo'llanilishi.

24-mavzu: Xususiyat ajratish (Feature extraction): To'qimalar, shakllar
Xususiyat tushunchasi. To'qima asosida ajratish. Shakl asosida ajratish. Qo'llanishi.

25-mavzu: Tasvir klassifikatsiyasi asoslari: KNN, SVM
KNN algoritmi. SVM algoritmi. Mashinani o'qitishda qo'llanishi. Amaliy misollar.

26-mavzu: Tasvirni siqish algoritmlari: JPEG va PNG asoslari
JPEG siqish usuli. PNG siqish usuli. Afzallik va kamchiliklar. Qo'llanilishi.

27-mavzu: Tibbiy tasvirlarni qayta ishlash (MRI va CT tasvirlari)
MRI tasvirlari. CT tasvirlari. Filtrlash va segmentatsiya. Diagnostik qo'llanilishi.

28-mavzu: Machine Learning asoslari (tasvir va signal uchun)
Machine Learning tushunchasi. Supervised va Unsupervised yondashuvlar. Signal va tasvirga qo'llash. Amaliy misollar.

29-mavzu: CNN (Convolutional Neural Network) asoslari
CNN arxitekturasi. Konvolyutsiya qatlamlari. Pooling qatlamlari. Tasvir tahlilida qo'llanilishi.

30-mavzu: Real vaqtda signal va tasvir ishlov berish texnikalari
Real-time ishlov berish tushunchasi. Dasturiy vositalar (OpenCV, MATLAB). Video oqimni tahlil qilish. Qo'llanilish sohalari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Signal namunalash va kvantlash amaliyoti (Python yoki MATLAB)
2. Past chastotali va yuqori chastotali filtrlarni yaratish
3. DFT va FFTni Python/Matlab yordamida hisoblash
4. Audio signalni shovqindan tozalash (Noise filtering)
5. Diskret signalni spektral tahlil qilish
6. Tasvirni yuklash va grayscale ga o'tkazish
7. Histogram tekislash va kontrastni yaxshilash
8. Gaussian va Sobel filtrlari bilan tasvirni filtrlash
9. Edge detection: Canny va Laplacian usullarini qo'llash
10. Tasvir segmentatsiyasi (Thresholding bilan)
11. EKG signalni filtrlash va tahlil qilish
12. Tasvirni siqish va qayta tiklash (JPEG misolida)
13. Tasvirdan xususiyat ajratish va tahlil qilish
14. CNN yordamida oddiy tasvirni klassifikatsiya qilish (MNIST dataset misolida)
15. Yakuniy loyiha: Real tasvir yoki signal bilan amaliy tahlil (Audio, EKG yoki Tasvir)

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Uyga berilgan vazifalarnga tayyorgarlik ko'rish.
2. Analog va raqamli signallar farqini jadvalda keltirish.
3. MATLAB yoki Python'da oddiy signal uchun Fourier spektrini chiqarish.
4. FIR va IIR filtrlar tavsifi va misollarini chizish.
5. Butterworth, Chebyshev filtrlarini taqqoslash jadvalini tuzish.
6. Tasvirdagi shovqinni filtrlash usullarini amaliy ko'rsatish.
7. Tasvir kontrasti, yorqinligi, rang balansi haqida misollar tayyorlash.
8. JPEG, PNG, BMP formatlarini taqqoslash jadvalini tuzish.
9. JPEG siqish algoritmining ishlash prinsipi haqida referat tayyorlash.
10. Web-kamera orqali real vaqt filtrlash amaliyoti.
11. Tanlangan mavzu bo'yicha dasturiy yoki amaliy loyiha yaratish va taqdimot qilish.

3.	**V. Fanni o'qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).** Fanni o'zlashtirish natijasida talablar: **Bilim kompetensiyalari** - Analog va raqamli signallar, tasvirlar va ularning matematik modellari haqidagi nazariy bilimlarni egallaydi. Signal va tasvirlarni qayta ishlashning asosiy algoritmlari va usullarini tushunadi. Filtrlash, chastota tahlili, o'zgartirish (transformatsiya) usullari haqida chuqur bilimga ega bo'ladi. **Amaliy ko'nikmalar** MATLAB, Python (OpenCV, NumPy, SciPy) kabi dasturlarda signal va tasvirlarni qayta ishlash algoritmlarini amalga oshira oladi. Shovqinlarni kamaytirish, sifatni yaxshilash va obyektlarni aniqlash bo'yicha amaliy loyihalarni ishlab chiqadi. Tasvirni siqish, tiklash va format o'zgartirish bo'yicha amaliy ko'nikmaga ega bo'ladi. **Tahliliy va loyiha kompetensiyalari** Raqamli filtrlashning samaradorligini baholay oladi. Signal va tasvir tahlili asosida qaror qabul qilish uchun algoritmlar tanlay oladi. Real texnik masalalar uchun optimal qayta ishlash yechimlarini ishlab chiqadi. **Kommunikativ kompetensiyalar** Texnik hisobotlar tayyorlay oladi va natijalarni taqdim eta oladi. Guruhda ishlash, o'z fikrini texnik dalillar bilan asoslash va loyihani himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

CamScanner yordamida skanerlangan

4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • guruhlarda ishlash; • Interfaol metodlar; • taqdimotlar qilish; • shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshirish.
6.	**Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari** **Asosiy adabiyotlar:** 1. Bovik, A. C. – *Handbook of Image and Video Processing*. 2nd ed., Academic Press, 2021. https://unilibrary.uz/my-publication/literature/780875 2. F.F. Rajabov, N.S. Atadjanova, N.A.Irmuxamedova "Raqamli axborotlarni qayta ishlash va yaratish texnologiyasi" darslik Toshkent «FAN» 2022 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/781694 3. Michael D. Adams Signals and Systems Copyright 2022 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/782215 4. Li Tan - Digital Signal Processing Elsevier Inc. All rights reserved. 2020 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/780912 5. Gonzalez, R. C., Woods, R. E. – *Digital Image Processing*. 4th ed. Pearson, 2020 https://unilibrary.uz/my-publication/literature/780875 **Qo'shimcha adabiyotlar** 1. Proakis, J. G., & Manolakis, D. G. (2018). Digital Signal Processing: Principles, Algorithms, and Applications. Pearson. 2. Gonzalez, R. C., & Woods, R. E. (2018). Digital Image Processing. Pearson. 3. Oppenheim, A. V., & Schafer, R. W. (2019). Discrete-Time Signal Processing. Pearson. 4. Szeliski, R. (2020). Computer Vision: Algorithms and Applications. Springer. 5. Bovik, A. C. (2020). Handbook of Image and Video Processing. Academic Press. 6. Lim, J. S. (2019). Two-Dimensional Signal and Image Processing. Prentice Hall. 7. McAndrew, A. (2019). Introduction to Digital Image Processing with MATLAB. Cengage Learning. 8. Smith, S. W. (2020). The Scientist and Engineer's Guide to Digital Signal Processing. California Technical Publishing. 9. Burger, W., & Burge, M. J. (2021). Digital Image Processing: An Algorithmic Introduction Using Java. Springer. 10. Pratt, W. K. (2018). Digital Image Processing. Wiley. **Elektron ta'lim resurslari** 1. https://www.google.com/ 2. https://unilibrary.uz/ 3. https://ocw.mit.edu/courses/res-6-008-digital-signal-processing-spring-2011/ 4. https://stanford.edu/class/ee368/ 5. https://www.texnoman.uz/posts/web-dasturlash 6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Veb-dasturchi
7.	Faning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dastur hamda 60610500- Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari asosida ishlab chiqildi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'quv-uslubiy Kengashining 202___-yil _____dagi __-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlandi.
8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** F.Z.Mengturayev – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** Sh.A.Mengliyev - Termiz davlat universiteti "Amaliy matematika va informatika" kafedrasi dotsenti R.Mamajanov – DTPI "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri

CamScanner yordamida skanerlangan

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	Top-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	Top-300 (QS THE, ARWU)dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	QS: 1, THE: 3, ARWU: 4	https://ocw.mit.edu/courses/res-6-008-digital-signal-processing-spring-2011/
2	Stanford University	QS: 6, THE: 2, ARWU: 2	https://stanford.edu/class/ee368/
3	Massachusetts Institute of Technology (MIT)	QS: 1, THE: 3, ARWU: 4	https://ocw.mit.edu/courses/res-6-008-digital-signal-processing-spring-2011/
4	Harvard University	QS: 4, THE: 4, ARWU: 1	(ES/STAT 251) – https://hea-www.harvard.edu/astrostat/etc/es251_syllabus_05.pdf

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN
DTPI rektori: _____ O.A.Ruziyev
“____” _____2025-yil

Ro‘yxatga olindi: № - 1251.1.25-2025-yil
2025-yil “26” 06

MULTIAGENT TIZIMLAR

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	6100 000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi BT2406	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 6
Fan/Modul turi Tanlov	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari: 6

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim va kurs ishi (soat)	Jami yuklama (soat)
	Multiagent tizimlar	60	60	120

2.

I. Fanning mazmuni.

Fan o‘qitilishidan maqsad – Ushbu fan agentlar va multiagent tizimlar nazariyasi, dizayni va qo‘llanilishi bilan tanishtiradi. Mavzular agentlarning asosiy tushunchalari, agent arxitekturasi, kommunikatsiya, hamkorlik, muzokaralar va agentlarning taqsimlangan tizimlardagi roli haqida bo‘ladi. Talabalar, shuningdek, agentlarning o‘rganishi, qaror qabul qilishi va sun’iy intellekt, robototexnika va boshqa sohalardagi amaliyotlarini o‘rganadilar.

Fanning vazifasi - qiyin formallashuvchi masalalarini yechish uchun hisoblash eksperimenti ko‘rinishida, Multiagent axborot tizimlarini (modellarini) yaratish ko‘nikmalarini berish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Multiagent tizimlari faniga kirish.

Kirish: Agent nima; agentlar va obyektlar; agentlar va ekspert tizimlari; agentlar va taqsimlangan tizimlar; agent tizimlari uchun odatiy qo‘llanilish sohalari.

2-mavzu. ***Intellektual Agentlar.***

Agentlar uchun mavhum arxitekturalar; agentlar uchun vazifalar.

3-mavzu. **Intellektual agentlarni loyihalash**

Mantiqiy fikrlovchi agentlar (masalan, Agent0), reaktiv tizim sifatidagi agentlar (masalan, subsumption arxitekturasi); gibrid agentlar (masalan, PRS); qatlamli agentlar (masalan, Interrap).

4-mavzu. **Ko‘p agentli tizimlar.**

Ontologiyalar: OWL, KIF, RDF.

5-mavzu. Ko‘p agentli tizimlarda o‘zaro aloqa tillari va protokollari.

Nutq aktlari, KQML/KIF, FIPA shabloni.

6-mavzu. **Ko‘p agentli tizimlarda hamkorlik.**

Hamkorlikda taqsimlangan muammoni hal qilish (CDPS), qisman global rejalashtirish; izchillik va muvofiqlashtirish.

7-mavzu. **Ko‘p agentli tizimlarda qaror qabul qilish.**

Ko‘p agentli o‘zaro ta’sirlar: yechim tushunchalari; sof va aralash strategiyali Nash muvozanati; Pareto samaradorligi; hamkorlikdagi va nohakorlikdagi yondashuvlar; nol yig‘indili va boshqa o‘zaro ta’sirlar; qanday qilib hamkorlik yuzaga keladi — Mahbus dilemmasi va Axelrod tajribalari; dasturiy muvozanatlar o’rganiladi.

CamScanner yordamida skanerlangan

8-mavzu. **Hisoblashga asoslangan ijtimoiy tanlov.**

Ovoz berish protokollari; Arrow teoremasi; Gibbard–Satterthwaite teoremasi; strategik manipulyatsiya va uni oldini olishdagi hisoblash murakkabligining roli.

9-mavzu. **Koalitsiya tuzish: yadrosi (the core).**

Shapley qiymati; koalitsion o'yinlar uchun ifodalar; koalitsiya tuzilmasini yaratish.

10-mavzu. **Cheklangan resurslarni taqsimlash.**

Auksion turlari; alohida elementlar uchun auksionlar (Ingliz, Golland, Vickrey auksionlari); kombinatorik auksionlar; g'olibni aniqlash; savdo tillari; VCG mexanizmi haqida tushunchalar o'rganiladi.

11-**mavzu. Muzokaralar.**

Navbat bilan taklif berish protokoli; vazifaga yo'naltirilgan muzokaralar; muzokaralar orqali resurslarni taqsimlash kabi tushunchalar o'rganiladi.

12-**mavzu. Ko'p agentli tizimlarning mantiqiy asoslari.**

Bilishga doir model mantiqlar (epistemik mantiqlar), ruhiy holatga oid mulohazalar; hamkorlik mantiqlari; bu mantiqlarning qo'llanilishi (verifikatsiya/modelni tekshirish, bevosita bajarish).

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

1. Agent va obyektni solishtirish: UML diagrammalari va holat mashinalari yordamida modellashtirish.
2. Ekspert tizimlari uchun qoidaviy agent modeli yaratish (IF-THEN qoidalari asosida).
3. Agent arxitekturasini modellashtirish(BDI (Belief–Desire–Intention) modeli asosida).
4. Reaktiv agentlarni qurish(Subsumption arxitekturasi asosida)
5. Gibrid agent simulyatsiyasi. PRS agent modeli bilan masalani hal qilish
6. Qatlamli agentlarni modellashtirish. Interrap modeli orqali ierarxik qaror olish.
7. Ontologiyalarni tahlil qilish. OWL, RDF va KIF asosida bilim bazasi yaratish.
8. KQML va FIPA asosida agentlararo muloqot protokolini amalga oshirish
9. CDPS (Cooperative Distributed Problem Solving) modeli asosida vazifani taqsimlash (Ko'p agentli tizimda muammoni parallel hal qilish).
10. Nash muvozanatini topish(Mahbus dilemmasi asosida). Nash muvozanatini hisoblovchi Python kodi yozish.
11. Shapley qiymati yordamida koalitsiya tuzish va foyda taqsimotini aniqlash.
12. Auksion mexanizmlarini taqqoslash: Vickrey va Dutch auksion simulyatsiyasi. Agentlarning narx berish strategiyalarini yaratish va natijalarni tahlil qilish.
13. Alternating Offers protokoli asosida muzokara modeli yaratish.
14. Epistemik mantiq asosida agentlarning bilim va ishonch darajasini aniqlas.

CamScanner yordamida skanerlangan

	15. Ovoz berish mexanizmlarini sinash(Arrow va Gibbard–Satterthwaite teoremalari asosida). Har xil ovoz berish usullarida natijalarning qanday o‘zgarishini amalda ko‘rsatish. *IZOX.:* Amaliy mashg‘ulot soatlari hajmlaridan kelib chiqqan holda ishchi dasturda mazkur mavzular ichidan amaliy mashg‘ulot mavzulari shakllantiriladi. **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.** *Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:* 1. Ma’ruzada o‘tilgan mavzularni adabiyot va ma’ruza matnlaridan foydalanib mustahkamlash. 2. Amaliy mashg’ulotlar materiallarini mavzu bo’yicha adabiyotlar va uslubiy ko’rsatmalardan foydalanib o’zlashtirish. 3. Har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda tanlangan mavzular bo‘yicha 1 ta referat tayyorlash: 1. Multiagent tizimlar muammolari va ularning yechimlari. 2. Multiagent tizimlarni xafsizligini ta’minlash bo‘yicha choralar. *Izoh:* Mustaqil ta’lim soatlari hajmlaridan kelib chiqqan holda ishchi dasturda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, fan bo‘yicha talaba dunyoqarashini kengaytiradigan mustaqil ta’lim mavzulari shakllantiriladi.
3.	**V. Fanni o‘qitilishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).** **Fanni o‘zlashtirish natijasida talabalar:** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • Multiagent tizimlar haqida umumiy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi hamda ulardan foydalanish bo‘yicha **tasavvurga ega bo‘lishi**; • Ko‘p agentli tizimlarni ishlab chiqish va ularni real muammolarni hal qilishda foydalaniladigan dasturiy vositalardan foydalanish va ularning afzalliklarini o‘rganish hamda egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olish haqida **bilimlarga ega bo‘lishi.** • Agentlar o‘rtasidagi muloqot turlari, protokollar va ular yordamida maqsadli natijalarga erishish jarayonlarini tushunib, Multiagent tizimlar muammolarini hal qilishda jamoaviy hamkorlikni tashkil eta olish va loyiha boshqaruvi bo‘yicha **tasavvurga ega bo‘ladi**.
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** - ma’ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

CamScanner yordamida skanerlangan

	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

6.	**Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari** **Asosiy adabiyotlar:** 1. J.Sh. Bekqulov, I. Ibragimov. Sun’iy intellekt asoslari. Ma’ruzalr to’plami. Nashriyot: Qarshi.2023 y.136 bet. https://unilibrary.uz/literature/475618 2. Sh.U.Eshonqulov, N.A.Qarshiboyev.Sun’iy intellekt asoslari. O‘quv qo‘llanma. Nashriyot:Farg’ona. 2025 y.173 bet. https://unilibrary.uz/literature/764791 3. Turayeva Sh. N. Robototexnika asoslari. O‘quv qo‘llanma. Nashriyot: TDPU.2024 y.132 bet. https://unilibrary.uz/literature/765600 4. Karimov B. X.Robototexnika asoslari fanidan laboratoriya mashg’uloti. O‘quv qo‘llanma. Nashriyot:Farg’ona. 2025 y.173 bet. https://unilibrary.uz/literature/764791 5. Sheraliyev Sh. E. Robototexnika asoslari. Darslik. Nashriyot: TDPU. 2025 y. 191-bet. https://unilibrary.uz/literature/765595. **Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Q.A.Bekmuratov.Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari.O’quv qo’llanma.2021 y.351-bet https://unilibrary.uz/literature/154401 2. Bozarov Sardor Soxibjonovich.Sun’iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik.Phd Avtorefrat. Nashriyot: Toshkent. 2023-y.65-bet. https://unilibrary.uz/dissertation/338581 3. Ivanyan Arsen Ignatevich. Sun’iy intellekt texnologalaridan foydalanib ishlab chiqarish obektlarining raqamli egizaklari nazariyasini rivojlantirish.Phd Avtorefarat. 2024 y. 62-bet. https://unilibrary.uz/dissertation/752952 4. Gofurjanova N.K. Robototexnika asoslari.Majmua. 2023 y. 149-bet. https://unilibrary.uz/literature/448693 5. G.Yo.Bo`ronova. Virtual ta’lim platformasi asosida robototexnika to’garagi faoliyatini takomilashtirish metodikasi. Phd Avtoreferat.Nashriyot: Buxoro davlat universiteti. 2023 y. 52-bet. https://unilibrary.uz/dissertation/407340
7.	Faning o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va

CamScanner yordamida skanerlangan

	innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-iyunda qabul qilingan "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'ining 2-ilovasida berilgan namunaviy dasturi asosida va 60610500-Kompyuter injiniringi ta'lim yo'nalishining malaka talablari hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kengashining 2025-yil ___-_____dagi ____-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.
8.	**Fan / modul uchun mas'ullar:** E.I.Saidaxmedov – DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi katta o'qituvchisi.
9.	**Taqrizchilar:** R.Ya.Mamajanov –DTPI, "Axborot texnologiyalari" kafedrasi mudiri t.f.n.dots. O.Allanov-Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Kiberxavfsizlik va kriminalistika" kafedrasi mudiri PhD.dots.

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan.

№	TOP-300 Xorijiy oliy ta'lim tashkiloti nomi	TOP-300 (QS/THE) dagi o'rni	Sayt manzili, linki
1	Johns Hopkins (Finland)	117/115	https://www.reddit.com/r/jhu/comments/n5bhpf/syllabus_for_artificial_intelligence_by_dr_mielke//6-034-fall-2006/contents/syllabus/index.htm
2	Ulsan National Institute of Science and Technology (South Korea)	280/266	https://webstor.srmist.edu.in/web_assets/downloads/2024/b-tech-m-tech-artificial-intelligence-syllabus.pdf?utm_source=chatgpt.com
3	Al-Xarkas (South Korea)	294/273	https://ai.xarkas.com/artificial-intelligence-syllabus-complete-course-structure-ug-pg-phd/?utm_source=chatgpt.com
4	New York University(United States)	43/38	https://chatgpt.com/c/68ad328b-7368-8331-8a25-1c84b68da7ef
5	Stanford University (Europe)	3/3	https://see.stanford.edu/Course/CS223A
6	University of Birmingham (Europe)	80/84	https://www.birmingham.ac.uk/study/postgraduate/subjects/mechanical-engineering-courses/robotics-msc
7	University of Illinois (Europe)	80/80	https://publish.illinois.edu/ece470-intro-robotics/syllabus-spring-2025-2/?utm_source=chatgpt.com

CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN

DTPI rektori: _____ A.Ruziyev

“____” _____2025-yil

Ro‘yxatga olindi: № - 363 2.02.2025

2025-yil “26” 06.

TARMOQ XAVFSIZLIGI FANI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	600 000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim sohasi:	6100 000 –	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
Ta’lim yo‘nalishi:	60610500 -	Kompyuter injiniringi

Denov – 2025

CamScanner yordamida skanerlangan

Fan/modul kodi TX1606	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 5	Kreditlar 6
Fan/modul turi Tanlov	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarmoq xavfsizligi	90	90	180

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qishdan maqsad – talabalarga tarmoq xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xalqaro va milliy me’yoriy hujjatlarni bilish bilan bir qatorda tarmoq xavfsizligini ta’minlashda foydalaniladigan usullar va vositalarni o‘rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanni vazifasi – talabalarga nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar berish, hamda tarmoq xavfsizligining asosiy tushunchalari, tarmoq turlari va tarmoq xavfsizligiga zamonaviy tahdidlar, tarmoq xavfsizligi standartlari va protokollari, tarmoq xavfsizligini ta’minlashda foydalaniladigan apparat va dasturiy vositalarning ahamiyatini ochib berish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Tarmoq xavfsizligi tushunchasi va uning mohiyati. Kompyuter tarmoqlari.

Tarmoq xavfsizligi faniga kirish, kompyuter tarmoqlarida xavfsizlik tushunchasi va tarmoqlarni qurishda tarmoq xavfsizligining mohiyati.

Tarmoq turlari, tarmoq topologiyalari.

2-mavzu. Kompyuter tarmoqlari imkoniyatlari. Tarmoq xavfsizligiga tahdidlar.

Tarmoq tahdidlari va ulardan himoyalanish usullari va tarmoq xavfsizligi tahdidlari klassifikatsiyasi.Tarmoq tahdidlarini zamonaviy shakillari va ulardan himoyalanish usullari va tarmoq xavfsizligi tahdidlari klassifikatsiyasi.

3- mavzu. Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida xavfsizlik siyosati.

Kompyuter tizimlari va tarmoqlarida xavfsizlik siyosati modellari tushunchasi. Xavfsizlik monitori va xavfsizlik siyosatining asosiy usullari.

4- mavzu. Tarmoq xavfsizligi standartlari. Tarmoq xavfsizligi standartlari. Marshurtizatorlarda NAT va PAT texnologiyasini imkoniyatlari.

CamScanner yordamida skanerlangan

Tarmoq xavfsizligi. Sharh va konsepsiyalar. Tarmoq xavfsizligini loyihalashtrish va joriy etish bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar. Etalon tarmoq ssenariylari, tahdidlar, loyihalashtrish usullari va boshqaruv masalalari. Xavfsizlik shlyuzlarini qo'llangan holda tarmoqlararo xavfsizlikini ta'minlash kommunikatsiyalari.Tarmoq xavfsizligi tashkil etish va vazifalarininng asosiy tamoyillari. Xavfsiz Mashurtizatorlar. Tarmoq protokollari. Mashurtizatorlarda NAT/PAT imkoniyatlari.

5- mavzu. OSI va TCP/IP modellari. Ilova va taqdimot sathlarida axborotni himoyalash infratuzilmasi.

OSI modeli, tarmoqqa qo'yiladigan talablar va uning ishlash asoslari.

Ochiq tizimlar o'zaro ishlashining etalon modeli. TCP/IP modellarining imkoniyatlari va protokollari. Ilova sathi protokollarining xavfsizlik muammolari. Identifikatsiya va foydalanishlarni tashkil etish. Taqdimot sathida himoyalash vositalari.

6- mavzu. Kanal va seans sathlarida himoyalangan kanallarni shakllantrish protokollari.Transport sathida ma'lumotlarni himoyalash.

Kanal sathida himoyalangan kanallarni shakllantirish protokollari.

PPTP, L2F va L2TP protokollari, Seans sathida himoyalangan kanallarni shakllantirish protokollari. SSL/TLS va SOCKS protokollari. OSI modelining transport sathi imkoniyatlari va xususiyatlari. Transport sathi xavfsizlik protokollari.

7- mavzu. Tarmoq sathida ma'lumotlarni himoyalash. Fizik sathda kompyuter tarmog'ini himoyalash.

IPSec xavfsizlik vositasi arxitekturasi. IPSec vositasini amalga oshirish. AH va ESP protokollari yordamida uzatilayotgan ma'lumotlarni himoyalash. IKE kriptokalitlarini boshqarish protokoli. Axborotning himoyalashning tashkiliy-texnik usullari. Fizik sath xavfsizligi.

8- mavzu. Virtual xususiy tarmoqlar. Kompyuter tarmoqlaridagi masofaviy hujumlar.Himoyalangan virtual tarmoq texnologiyalari asoslari.

Masofaviy hujum tushunchasi. Masofaviy hujumlarni tasniflash va ularni amalga oshirish mexanizmlari. Tarmoq trafigini tahlillash. Qalbaki ARP-server va DNS-serverlar. Himoyalangan virtual tarmoq texnologiyalari. IPSec VPN komponentalari. Virtual xususiy tarmoqlarni qo'llagan holda tarmoqlararo xavfsizlikni ta'minlash kommunikatsiyalari.

9- mavzu. Tarmoqlararo ekran texnologiyalari. Tarmoqlararo ekran texnologiyalarining konfiguratsiyasi.

CamScanner yordamida skanerlangan

Foydalanishlarga ruxsat berish ro'yxati (ACL). Tarmoqlararo ekran texnologiyalari. Tarmoqlararo ekranlarning qo'shimcha imkoniyatlari.

Zonali siyosatga asoslangan tarmoqlararo ekran. ASA (Adaptive Security Appliance) ga kirish. ASA tarmoqlararo ekranning konfiguratsiyasi.

10- mavzu. Hujumlarni aniqlash va bartaraf etish. Tarmoq muammolarini bartaraf etish.Troubleshooting imkoniyatlari.

Hujumlarni aniqlash tizimi. IDS/IPS texnologiyalari. IPS signaturasi. IPSni qo'llash. Tarmoq texnologiyasi. Tarmoq darajasida muommolarni izlash bartaraf etish, Tarmoqda Troubleshooting imkoniyatlari.

11- mavzu. "Bulutli" hisoblash tizimlarida axborot xavfsizligi. Tarmoqda ma'lumotlar xavfsizligining uskunaviy va dasturiy ta'minoti.

